

NOSIRJON ULUQOV  
LOBAR ABDUHAMIDOVA

*Nutq madaniyati  
talqin va tahlillari*



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA IAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Nosirjon Uluqov  
Lobar Abduhamidova**

***Nutq madaniyati  
talqin va tahlillari***

**(magistratura mutaxassisligi talabalari uchun o'quv-uslubiy  
qo'llanma)**

**“NAVRO‘Z” nashriyoti  
TOSHKENT – 2017**

**KBK 80.04 (5 O'zb)**

**U 48**

**UO'K: 80.22.14**

**ISBN 978-9943-381-81-0**

*Uluqov N., Abduhamidova L. Nutq madaniyati talqin va tahlillari*  
// o'quv-uslubiy qo'llanma // T.: «NAVRO'Z» nashriyoti 2017. – 52 b.

O'quv-uslubiy qo'llanmada o'zbek xalq maqollari, “Avesto”dagi hamda Abu Nasr Farobiy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi buyuk allomalarning nutq odobi va madaniyatiga doir qarashlari, talqinlari tahlil qilingan.

Qo'llanmadan magistratura yo'nalishlarida “Nutq madaniyati” fanida notiqlik tarixi, nutq odobi va madaniyatining me'yor hamda talablarini o'rganishda foydalanish mumkin.

**Taqrizchilar:**

**Siddiqjon Mo'minov**, professori, filologiya fanlari doktori

**Muhabbat Saidova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

NamDU o'quv-uslubiy kengashining 2017-yil 19-apreldagi 9-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.



© “NAVRO'Z” nashriyoti 2017  
© Uluqov N., Abduhamidova L.

## So'zboshi

Qadim zamonlardan buyon nutq madaniyatiga, notiqlik san'atiga katta e'tibor berilgan. Keyinchalik alohida fan sifatida V-VI asrlarda Yunonistonda yuzaga kelib, miloddan avvalgi III-II asrlarda tizimli fan shaklini olgan. Qadimgi Sharq pedagogikasining noyob asarlaridan biri bo'lgan "Qobusnoma"da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratli fikrlar aytilgan bo'lib, asar muallifning farzandiga qilgan nasihatlari sifatida yozilgandir. U farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: "So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham yomon ko'rinadi". Kaykovus yana ta'kidlaydi: "Kishining martabasini so'zi bilan bilurlar, ammo so'zning martabasini kishi bilan bilmaslar, chunki har kishining ahvoli undan chiqadigan so'zning ostida yashiringandir, ya'ni bir so'zni bir ibora bilan aytilsa, eshitgan odamning ko'ngli undan xijolat tortgay va yana o'sha so'zni bir ibora bilan aytsa, eshitgan odamning joni undan rohatlanadi".

Hamma davrlarda ham notiqlik madaniyati, so'zamolik notiq shaxsning umummadaniy qiyofasi va saviyasini belgilovchi asosiy fazilatlaridan biri sifatida qaralgan. Zero, nutq bu tafakkur aksi hisoblanadi. To'g'ri nutq asosi to'g'ri fikr yuritishdadir. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy shunday yozadi: "So'zni ko'ngulda pishqormaguncha tilga keltirma, har nakim ko'ngulda bo'lsa, tilga surma".

Nutq madaniyati va notiqlik oldiga sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik qilmaslik, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilikni qoralash, suhbatdoshning fikrlarini e'tibor bilan tinglash, tushunmagan, to'la anglamagan holda fikr bildirishga shoshilmaslik, vaziyat taqozo-siga ko'ra hushyorlik va epchillik bilan suhbat usulini o'zgartirishga erishish, asosiy maqsaddan chalg'ib ketmaslik, barchaning asosiy diqqatini ma'lum mavzu, ma'lum bir masala atrofiga tortish kabi talablar qo'yiladi.

Bugungi kunga kelib barcha magistratura mutaxassisliklari o'quv dasturiga "Nutq madaniyati" fani kiritildi. Chunki notiqlik san'ati sirlarini o'rganish barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis, har bir inson uchun hayotiy zaruratdir. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan-texnika, madaniy adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sayin nutqi ham jilolanib, sayqallanib nutq madaniyati me'yor va talablariga muvofiq holda takomillashib boradi.

Magistrlarda ijtimoiy ehtiyojlarga mos nutq va muloqot madaniyatini yuksaltirish yuksak ma'naviyatli va yuqori salohiyatli kadrlar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir. Shu boisdan ularni adabiy og'zaki va yozma nutq me'yorlari bilan tanishtirish, bu me'yor va qoidalardan amaliy foydalana bilish malakasini oshirish, fikr mahsulini nutq sharoiti va vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon, ta'sirchan ifodalash, o'zgalar fikrini to'g'ri va aniq anglash ko'nikmalarini rivojlantirish hozirgi kunda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bunda notiqlik tarixini, uning qadimiy manbalarini puxta o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Sharqning buyuk allomalari: Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolarning nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy e'tibor berishga da'vat etuvchi fikrlari diqqatga sazovordir.

"Nutq madaniyati" faniga doir darslarida o'zbek xalq maqol-laridagi nutq odobiga doir pand-u o'gitlarni, alloma-yu mutafak-kirlarning nutq odobi, madaniyatiga doir talqin-u qarashlarini sinchkov-lik bilan mukammal o'rganish sohaga doir nazariy va amaliy bilim-larning oshishiga yordam beradi, so'z qo'llash, notiqlik sirlari, muloqot madaniyatiga daxldor malaka va ko'nikmalarning boyishi hamda takomillashuviga xizmat qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanma ana shu jihatlarni e'tiborga olgan holda tayyorlandi. Mavzularni yoritishda uzviylik, mantiqiylik va ketma-ketlik tamoyillariga amal qilindi. Har bir mavzudan keyin talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun nazorat savollari berildi.

## **Notiqlik nazariyasi asoschisining nutq va uning mukammalligi xususidagi qarashlari**

Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan uzoq davrlardan buyon qiziqib kelganlar. Qadimgi Yunonistonda va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilgan. Jumladan, Yunonistonda notiqlik san'ati yuksak darajada taraqqiy etib, Perikli, Lisiy, Demosfen, Aristotel kabi jahon notiqlik san'atining yirik namoyandalari yetishib chiqqan.

Aristotel (Arastu) o'n yetti yoshidan Aflotun huzuriga shogirdlikka kelgan. U iste'dodli inson bo'lib, ko'p ilm va haqiqat sirlarini ochishga erisha olgan.<sup>1</sup> U Yunonistonda yashagan paytlarda mamlakatda notiqlik san'atiga, chiroyli so'zlashga, fikrni go'zal ifoda etishga intilish kuchaygan. Chiroyli so'zlash bo'yicha qo'llanmalar yaratish, notiqlik san'ati maktablarini ochish an'ana tusini olgan. Eramizning 335-yilida Aristotelning uch kitobdan iborat "Ritorika" asari yaratilgan bo'lib, ushbu asar shu yo'nalishda yaratilgan asarlarning eng sarasi deb e'tirof etiladi.

"Ritorika"ning birinchi va ikkinchi kitoblari chiroyli so'zlashning mohiyati, ishontirish san'ati borasidagi mulohazalardan tarkib topgan. Uchinchi kitob notiq nutqining mantiqiy qudrati bilan aloqador masalalarni oydinlashtirishga qaratilgan. Aristotel notiqning ko'rinishidan boshlab so'zlashi, mulohaza yuritish maneralari, harakat va holatlari – barchasi asosiy mavzuni ochishga xizmat qilishi lozimligini uqtiradi. Nutqning ta'sirchanligi, notiqning hissiyot bilan so'zlashi, ortiqcha tafsilotlarga berilmaslik, me'yorni saqlay bilish, har xil qiyosiy misollardan, ko'rgazmali tasvir vositalaridan foydalanish notiq muvaffaqiyatining garovi ekanini ham ta'kidlaydi.

Masalan, u notiqning nutqiy jarayoni besh bosqichdan iborat bo'lishini qayd etib o'tadi:

1. Mavzuga kirishish (har tomonlama o'rganish).
2. Mavzuning tarxini tuzish (reja tayyorlash).
3. Mavzuni yodga olish (to'la o'zlashtirish).
4. Mavzuni og'zaki nutq orqali chiroyli ifoda etish.
5. Mavzuni aniq va to'g'ri talaffuz orqali yoritib berish.

Aristotelning ushbu "qolip"i qancha davr, asrlardan beri dunyo notiqolari tomonidan deyarli o'zgarishsiz istifoda etib kelinmoqda. Aristotel

<sup>1</sup>Жуманиёзов Р. Дил – кулф, калит – тил. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015 – Б.17.

notiqlik san'atining nazariyotchisi bo'libgina qolmasdan yetuk amaliyotchi ham bo'lgan.

U ritorikaga shunday ta'rif beradi: "*Ritorika – xitoba har bir aniq fikrga tinglovchilarni ishonitirishning mumkin bo'lgan yo'llari, usul-larini topish san'atidir*".<sup>1</sup> Arastu ritorikaning dialektik fikrlash, axloq-shunoslik va siyosat sohalariga aloqador ekanligini aytadi.

Ma'lumki, notiqlarning nutqi kimga qaratilganligi bilan o'zaro farqlanadi. Nutqni tinglovchilar oddiy fuqaro, tomoshabin yoki katta doiralarga mansub bo'lishi mumkin. O'zi yashagan davr nuqtai nazari-dan olim nutqni maqsadi, vazifasiga ko'ra uch katta guruhga ajratadi:

1. *Kengashuv (maslahatlashuv) nutqi.*
2. *Adliya, sudlov nutqi (qoralovchi, oqlovchi, guvohlar va hoka-zo).*
3. *Epideyktiv – tantanavor nutq. (254-bet)*

Yuqoridagi uch turdagi nutqda muhokama qilinadigan mavzular vaqtini ham ko'rsatib o'tadi. Kengashuv nutqida uzoq yoki yaqin kelajakda yuz beradigan voqealar muhokama qilinsa, adliya nutqi sudlov jarayonidagi vaqt bilan bog'liqdir. Tantavor nutq vatan, xalq uchun qilingan yaxshi ishlarni maqtash yoki zarar keltiruvchi yomon, tuban, yaramas isharni qoralashdan iboratdir.

Qadimgi Yunonistonda ritorika – xitoba san'ati poetika bilan uzviy aloqador bo'lsa-da, u davlat boshqaruvi, davlat va jamoat arboblarning siyosiy faoliyati, sulh va harb, urush va tinchlik, vatan himoyasi, davlatning iqtisodiy harbiy qudratini oshirish, shon-shuhratli ishlar, qahramonliklarning barchasi vatan uchun deb biluvchi xalq oldida eng muhim muammolarni muhokama qilish, o'z maqsadi, taklifi, siyosiy yo'lining vatan va xalq manfaatlariga muvofiq ekanligini dalillash kabi hayot zarurati bilan bog'liq edi. Arastu o'zidan avval o'tgan ritorika olimlarining nutq san'atining hayot haqiqatini ifodalash xususiyatiga qiziqmay, faqat sud muhokamasida yutib chiqish usullariga (asosan sud nutqiga) qiziqish bilan cheklanganligini tanqid qiladi: "*Shunisi ham borki, odamlar tabiatan haqiqatni izlab topishga qobiliyatli bo'ladilar va ko'pincha shu haqiqatni topadilar ham*". (242-bet)

Haqiqat faqat sudlov jarayonlaridagina emas, hayotiy faoliyat uchun ham ahamiyatlidir. Arastu asosiy e'tiborini millatlar va xalq-larning baxt-saodatga erishuvi, adolatli davlat, qonunlarga birdek rioya qilinadigan fuqarolik jamiyati qurish uchun barcha davlat arboblari haqiqatni himoya qilishi, aqliy qobiliyatlarini insoniy fazilatlar bilan bezab, jamiyatning

<sup>1</sup> **Арасту.** Ахлоқ кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 245. Keltirilgan misollar shu manbadan olindi. Keyingi o'rinlarda shaifalar qavs ichida beriladi.

ma'naviy musaffoligi uchun xizmat qilishi zarurligiga, adib, shoir, notiqlik san'ati ustalari insonlarni ulug' va ezgu ishlarga da'vat qilishi va o'zlari namuna bo'lishi zarurligiga qaratadi.

Shularga binoan "Ritorika"ning 1-kitobining 5-faslida har qanday davlat va jamiyat a'zolarining eng oliy maqsadi – baxt-saodatga erishuv ekanligini, baxt-saodat tushunchasining 4 xil ta'rif borligini, baxt-saodatning tarkibiy qismlari (nasl-nasab, avlodlar, farzandlar, nabiralarning ko'pligi, jismoniy va ruhiy ne'matlar) haqida fikr yuritadi: *"Har qanday inson alohida holida ham, jamoa holida ham yaxshi, baxtli yashashga intiladi... Aslida, odamni baxtga eltuvchi ish-amallarga da'vat qilish, aksincha, baxtsizlikka eltuvchi ishlardan qaytarish zaru-rati bor"*. (264-bet)

"Ritorika"ning ikkinchi kitobida Arastu uch turli nutqlarda ham (kengashuv nutqi, sud nutqi, tantanavor nutq) o'z so'zlariga ishonch uyg'otishi zarurligi, qaysi usullar bilan ishonch uyg'otish mumkinligi to'g'risida fikr yuritadi.

Notiqlik san'atida ishontrish markaziy o'rinda turadi. Arastu fikricha, bu uch holat bilan bog'liqdir:

1. Nutq mazmunida notiqning ma'naviy, ruhiy go'zalligi (yoki ma'naviy qashshoqligi)ga qarab tinglovchilar ishonadi yoki ishonmaydi.

2. Tinglovchilarning kayfiyatiga qarab. Tinglovchilar xursand yoki xafa bo'lgan vaqtda gapirishadi. Arastu boshqa jihatga, ya'ni tinglovchining bilimi va ma'naviy saviyasi nutqqa ta'sir qilishi haqida so'zlaydi.

3. Nutqning mazmuni, saviyasiga qarab.

Tinglovchilarni ishontrishning ham uch manbaini ko'rsatadi:

1. Notiq aytgan holatni tinglovchilar ham boshidan kechirgan bo'lsa, o'sha fikrga ishonadilar.

2. Tinglovchi notiqning sofdilligini, ma'naviy yetukligini bilganda.

3. Notiq xulosasi isbotlab berilganda.

4. Uslub masalasi.

Kengashuv nutqida notiq o'z fikrini bildirishi mumkin bo'lgan sohalarni keltiradi:

1. *Moliyaviy ahvol (finanslar).*

2. *Urush va tinchlik.*

3. *Mamlakat himoyasi.*

4. *Mahsulotni chetdan olib kelish va chetga chiqarish.*

5. *Qonuniychilik.* (261-bet)

Bugungi kun notiqlik san'ati uchun shunday xulosa qilish mumkin, har bir soha mutaxassisi o'z yo'nalishining notig'i bo'lishi zarur.



“Ritorika”ning 3-kitobi asosan ritorik va poetik uslub **masalalariga** bag`ishlangan. Notiqlikda eng muhim uch masalani hal etish **zarurligini** aytadi:

1. Tinglovchilarni ishontirish usullarini qayerdan olish, o`rganish **masalasi**.

2. Nutq uslubi **masalalari**.

3. Nutq qismlarini qanday qurish **masalalasi**.<sup>1</sup>

Yozma va og`zaki nutq uslubining o`zaro farqli ekanligini aytadi: *“Yozma nutqning uslubi boshqa, og`zaki nutq va bahs-munozara, xalq oldida yoki sudda so`zlanadigan nutqlarning uslublari boshqa-boshqadir. Yozma nutq ravon, ravshan; bahs-munozara nutqida turli odamlarning fikrlari, so`zlarini keltirishda notiq aktyor kabi ularning nutqiga o`xshatishi kerak bo`ladi”*. (371-bet)

5-faslda Arastu nutqning ravon, mazmunan tushunarli, to`g`ri bo`lishing beshta shartini ko`rsatadi:

1. Jumla tuzishda bog`lovchilarni to`g`ri ishlatish.

2. So`zlarning o`zini to`g`ri ishlatish.

3. Bir necha ma`nolarni anglatuvchi so`zlarni iloji boricha ishlatmaslik.

4. Jumlada ismlar-otlarning jinsini to`g`ri aytish.

5. Jumlada ismlar, otlarning soni aniq ko`rsatilishi zarur.

Tahlillardan ko`rinadiki, Arastu notiqlik va nutq madaniyatining ilk nazariyotchisidir.

U nutqni go`zallashtiruvchi barcha unsurlarga to`xtalib, ular haqida ma`lumot beradi. “Ritorika” asarining qiymati faqat nazariyalar bayon qilinganidagina emas, notiqning axloqiy va ma`naviy barkamollik, adolat va haqiqat, go`zallik va insoniy fazilatlar himoyachisi, ularning g`olib chiqishiga xizmat qiluvchi shaxs sifatida e`tirof etilganidir.

Olimning baxt-saodat, insonni yaxshi va yorug` kunlar tomon ruhlantirish kabi ezgu ishlar haqidagi fikrlari oradan necha asr o`tsa ham, o`z ahamiyatini yo`qotmagan va yo`qotmaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Arastu nutqiy jarayon qanay bosqichlardan iborat ekanligini aytadi?

2. Boshqa davr notiqalaridan farqli ravishda olim ritorikaga qanday ta`rif beradi?

<sup>1</sup> Античные риторикы. – Москва: МГУ, 1978. – С. 127. Qarang. **Arastu**. Axloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 363.

3. Nutq maqsadi, vazifasiga ko`ra nechta turga ajratiladi?
4. “Ritorika”ning ikkinchi kitobida qanday masalalar yoritilgan?
5. Notiqlik san`atida markaziy o`rinda turuvchi jihat qaysi?
6. “Ritorika” asarida tinglovchilarni ishonitirishning nechta manbai ko`rsatilgan?
7. Ritorikaning III kitobi qaysi masalalarga bag`ishlangan?
8. Arastuning nutq madaniyati haqidagi qarashlarini hozirgi kun nuqtai nazaridan tahlil qiling.

## **“So`z – bir, sayqal – qirq” (o`zbek xalq maqollarida nutq odobi talqini)**

Dono xalqimiz qadim-qadimdan nutq odobi masalalariga alohida e`tibor bergan. Xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan nutq odobi haqidagi hikmatlar, maqollar buning dalilidir:

*Iliq so`z shakardir,  
Sovuq so`z – zahar.*

*Kim gapirganiga boqma,  
Nima gapirganiga boq.*

*Do`sting ham til, dushmaning ham til.  
Suydiradigan ham til, kuydiradigan ham til.*

Hayotiy tajribalar, hayotiy qiyoslar, xalqona tashbehlar, sa`j asosida yaralgan, H. Berdiyov, R. Rasulovlarning “O`zbek tilining paremiologik lug`ati” (Toshkent: O`qituvchi, 1984), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning “Ma`nolar maxzani” (Toshkent: O`zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2001) kitoblaridan o`rin olgan 100 dan ziyod purma`no o`zbek maqol va matallarida nutq odobi, madaniyatining tar-tibi, qonun-qoidalari, mezonlariga oid xalqona qarashlar ifodalangan.

Ko`pdan-ko`p maqollarda so`z til, nutq ma`nosida ham qo`llangan va uning ijtimoiy hayotdagi o`rni, mavqei, qadri sarbalandligi ta`kidlangan: “So`z qadrini bilmagan – o`z qadrini bilmas”, “So`z – bir, sayqal – qirq”, “So`zdan so`zning farqi bor, O`ttiz ikki narxi bor” kabi.

Bu “So`z – chimildiqdagi kelin” maqolida yanada yorqinroq kuzatiladi. Chimildiq – nikoh kechasi kuyov bilan kelinning boshqa-lardan holi o`tirishi va tunashi uchun uy burchagiga tortilgan parda. Maqolda

“Chimildiqdagi kelin o`zini nihoyatda odobli, hayoli, iffatli, uyatchan tutgani kabi, kishi ham aytadigan har bir so`zini o`ylab odobli, “pardali” qilib aytmog`i, “beparda”, uyatsiz so`zlarni aytishdan o`zini tiyishi kerak” degan fikr ilgari suriladi.

Tuzsiz yoki tuzi past ovqat bemaza bo`lgani kabi, bemaza, bema`ni, “tuzsiz” gaplarni aytuvchi odam ham kishini toliqtiradi, ensasi-ni qotiradi. “Oshning ta`mi tuz bilan, odamning “ta`mi” so`z bilan” maqolida va uning “Taom ta`mi – tuz bilan, Odam ta`mi – so`z bilan”, “Taom lazzati – o`zida, odam lazzati – so`zida” kabi variantlarida xuddi shu uqtiriladi.

Kishining og`zidan chiqqan har bir so`z, xoh yaxshi, xoh yomon, xoh o`rinli, xoh o`rinsiz bo`lsin, uni aslo qaytarib bo`lmaydi. Ayniqsa, odamlarni noo`rin haqoratlash, kamsitish, piching, kesatiq, ularning qalbini o`q yoki qilichday jarohatlashi mumkin. Kishi har bir so`zini o`ylab, ehtiyot bo`lib gapirishi kerak. Shu bois ayrim xalq maqollarida biror gapni aytishdan avval uni obdon o`ylab, atroflicha mulohaza qilib olish zarurligi uqtiriladi: “So`zning dami qilichdan o`tkir”, “So`z – qilichdan o`tkir”, “Aytilgan so`z – otilgan o`q” kabi.

Mazkur maqollarning “Og`izdan chiqqan so`z qaytmas”, “Aytgan so`zni ichkari yutmoq bo`lmas”, “So`z chumchuq emas, og`izdan chiqsa tutib bo`lmas” kabi bir necha variantlari ham bor.

Xalqona hayotiy qiyos bilan to`yingan “So`z – emgak bo`lar, Bo`z – kuylak bo`lar” maqolidagi emgak so`zi zahmat, qiyinchilik ma`nosida bo`lib, o`ylamay-netmay aytilgan, noo`rin, nojo`ya so`z kishiga ziyon-zahmat keltiradi deyilmoqda.

Ko`p bilgan, ya`ni ko`p o`qigan, ko`pni ko`rgan tajribali, aqlli, dono odam odatda ko`p gapirmaydi, arzir-arzimas gapni cho`zib, ezma-churuklik qilib o`tirmaydi, birovga aytmogchi bo`lgan gapini, bildir-mogchi bo`lgan fikrini qisqagina, lo`ndagina, aniq-ravshan qilib tushuntiradi. Shunda tinglovchi ham bundan qanoat hosil qiladi. “Ko`p bilgan oz so`zlar, oz so`zlasa ham, soz so`zlar”, “Ko`p gap – eshakka yuk”, “Ko`p o`yla, oz so`zla!”, “Oz so`yla, ko`p ishla!”, “Oz so`z – soz so`z” kabi maqollarda nutqning aniq va mazmunli bo`lishi barobarida qisqa, lo`nda va aniq bo`lishiga ham jiddiy e`tibor qaratilgan hamda nutq odobiga xos shu jihat uqtirilgan. Zero, xalqona ta`bir bilan aytganda, “So`zning ham o`lchovi bor”, “So`z doriga o`xshaydi: ortiqchasi zarar keltiradi”.

“So`z – kumush, sukut – oltin”, “So`zlaganing kumush bo`lsa, so`zlamaganing – oltin”, “So`zlaganing kumush bo`lsa, tek turganing oltin”, “Saqlangan so`z – sof oltin”; “Aytmasdan burun so`zga sen ega,

*aytgandan so`ng senga so`z ega*” kabi bir turkum maqollarda esa sukutga, ya`ni tinglash odobiga alohida mezon sifatida qaraladi.

Hatto oz, ya`ni qisqa nutq tinglovchiga orom berishi, ortiqchasi haromligi aytiladi: *“Oz so`z – orom so`z, Ko`p so`z – harom so`z”*.

*“Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga”*, *“So`zni aytgin uqqanga, dilni dilga suqqanga”* kabi maqollarda so`zlovchi va tinglovchi munosabatlariga e`tibor qaratiladi. Maqollarda gapni, so`zni, ya`ni nutqni uqadigan, jon qulog`i bilan tinglaydigan va iltimosingni rad etmaydigan odamga gapir. Yaramas ahmoqlarga gapirib ham o`tirma, bari-bir uqtirolmaysan, gaping zoye ketadi deyiladi. Bu fikrning quyi-dagi maqollarda ham uqasiz: *“Ahmoq o`zi bilmas, Bilganning so`ziga kirmas”*, *“Toshga yomg`ir kor etmas, Ahmoqqa so`z kor etmas”*, *“Aqlliga so`z aysang uqib olar, Ahmoqqa so`z aysang, aqling qolar”* kabi.

*“So`zing kumush bo`lsa, Tinglovchi tilla bo`lsin”* maqolida shunday odamga gapirginki, u so`zingni ma`nosini o`zingdan ham yaxshiroq biladigan bo`lsin. Gapingni ma`nosini bilmaydigan odamga nima qilasan gapirib, deyiladi.

Xalqimiz ko`pgina maqollarda so`zlash odobiga qattiq rioya qilish zarurligini uqtirgan. O`zaro pichirlashib, yon-atrofdagilardan gap ber-kitib, birovning orqasidan gapirish, g`iybat qilish, shuningdek, *“yuzingda ko`zing bormi”* demay, birovga kesatiq, piching qilib, sanchib-sanchib gapirish – o`taketgan yomon odat ekanligi *“So`zning yomoni – pichir”* maqolida yanada ta`sirli ifodalangan.

Xalq *“til uchi”*da, ya`ni soxta so`zlashni ham qoralaydi:

*“Ko`zi uchiman ko`zlama,*

*Ko`zingga zarar kelar,*

*Til uchiman so`zlama.*

*O`zingga zarar kelar”*.

Xalqimiz rostgo`ylikni insonning eng yaxshi fazilatlaridan, yolg`onchilik, aldamchilik esa eng yomon illatlardan biri deb biladiki, bu bir qator maqollarda o`z aksini topgan: *“To`g`ri so`zning zahri yo`q”*, *“Haq gap – haqiqdan qimmat”*, *“Suvni chim to`xtatar, so`zni chin to`xtatar”*, *“Tuyaning buvarasi yaxshi, so`zning tuvarasi yaxshi”*, *“To`g`ri so`z qilichdan o`tkir”*, *“To`g`ri so`z achchiq bo`ladi”*, *“To`g`ri so`zning to`qmog`i bor”*, *“To`g`ri so`z tutoqtiradi”*, *“To`g`ri so`z quloqqa yoqmas”*, *“Chin so`zni yolg`onga chulg`ama”*, *“To`g`ri so`zga to`g`anoq bo`lma”* kabi.

Dalillardan ko`rinadiki, sodda, mazmun jilosiga burkangan, mazmuniy qobig`ida hikmatona, ibratona ma`nolar jamlangan xalqimizning

nutq odobiga doir pand-u o'gitlari, hayotiy tajribalari quyma jumalarda ifodalangan. Ularning zamirida ibratona tagma'no va mazmun mujas-sam.

Maqollarda ham shakliy, ham mazmuniy mutanosiblik, uyg'unlik mavjud. Maqollar o'z ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham qo'llanish imkoniga ega.

Ko'p maqollarda til va dilning, ya'ni til va tafakkurning bog'liq-ligi, shu bois ko'ngildagilar tilda yuzaga chiqishi aytiladi: "*Til – dilning tarjimoni*", "*Til – ko'ngil tilmochi*" yoki "*Dilda bo'lsa tilga keladi*", "*Dildagini til so'zlar*", "*Dilning kaliti – til*" kabi.

Xalq maqollarida tinglovchiga ma'qul bo'ladigan, mazmunli, ma'noli, yoqimli nutqqa nisbatan *iliq so'z*, *issiq so'z*, *yaxshi so'z*, *shirin so'z* va ularning ziddi sifatida *sovuq so'z*, *yomon so'z*, *achchiq so'z* kabi majoziy birliklar qo'llanadi hamda hamisha ijobiy nutq so'zlashga undaladi: "*Jilli-jili so'zlasang ilon inidan chiqar*", "*Yaxshi so'z – jon ozig'i, Yomon so'z – bosh qozig'i*" kabi.

"*Iliq-iliq so'zlasang, ilon inidan chiqar, Sovuq-sovuq so'zlasang, qilich qinidan chiqar*" maqolida yaxshi gap bilan dushmaningni ham do'st qila olasan. Yomon gapirsang, hatto boshingdan judo bo'lasan deyilmoqda.

Ko'rinadiki, ota-bobolar so'zlash odobiga qat'iy rioya qilish zarurligini uqtirib, ko'pdan-ko'p maqollar yaratishgan. Quyida keltiriladigan bir turkum maqollarda *yaxshi so'z* bilan *yomon so'z* orasida "osmon bilan yercha farq bor"ligi, yaxshi so'zning kishiga tegadigan sharofati-yu, yomon so'zning kasofati turli xalqona qiyoslar, talqinlarda ifodalangan: "*Yaxshi so'z – ko'ngil podshosi*", "*Yaxshi so'zga jon semiradi*", "*Issiq kiyim tani iltar, Issiq so'z jonni iltar*", "*Shirin so'z – shakardan shirin*", "*Shirin so'z o'likni ham tiriltiradi*", "*Yaxshi so'z suyuntirar, Yomon so'z kuyuntirar*", "*Yaxshi so'z yerda qolmas*", "*Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling*", "*Yaxshi so'z tosh eritar, Yomon so'z bosh chiritar*", "*Yomon so'z – pichoqdan o'tkir*" kabi.

Ma'lum mezon va me'yorlarga asoslangan nutq – axloqiy go'zallik belgisi. Go'zallik faqat insonning tashqi ko'rinishi bilan belgilanmaydi. Inson nutqining rasoligi uning asosiy go'zalligini belgilovchi va ko'rsatuvchi jihatligi esa quyidagi xalq maqollarida yorqin ta'kid bilan uqtiriladi: "*Yuzing chiroyli bo'lguncha so'zing chiroyli bo'lsin*", "*So'zning boyligi – odamning chiroyligi*", "*Taom lazzati o'zida, odam lazzati – so'zida*", "*Husn so'zda, uyat ko'zda*".

Har qanday nutq mantiqli bo'lmog'i lozim. Xuddi shu jihat xalqona majozlar, hayotiy qiyoslar, tashbehlar bilan uqtiriladi: "So'z-ning mag'ziga boq, Mag'zi bo'lmasa, etak qoq" kabi.

Nutq, xususan, til va so'zning aql, inson tafakkuri, axloqi bilan bog'liqligi, ulug'ligi, nutq odobi masalasi nafaqat o'zbek xalqida, dunyodagi barcha xalqlar hikmat va maqollarida uqtiriladi. Fikrimizni hadislar-u Ozarbayjonda nashr etilgan arab hikmat va maqollari, ularning ozarbayjon tilidagi muqobillari jamlangan "Otlar so'zi" kitobidan olingan quyidagi paremiyalar ham tasdiqlaydi: "Til tezligidan qadam tezligi yaxshi", "Ikki narsa foydasiz: hikmatsiz so'z va tafakkursiz sukut", "So'z aqlning tarozusidir", "So'z aql o'lchovidir" kabi.

Dunyo xalqlari og'zaki ijodida mushtarak jihatlar ko'p o'rinlarda kuzatiladi. Shunday mavzular borki, ular zamon, makon va xalq chegarasini bilmaydi. Jumladan, so'z, uning qiymatini anglash, yolg'on so'zlamalik masalalariga bag'ishlangan namunalar ham ko'p uchraydi:<sup>1</sup> "Gapning ofati yolg'on so'zlash", "Yolg'onchiga qo'shilma, noiloj yonida bo'lsang unga ishonma", "So'zning yomoni – yolg'on".

Ko'p yolg'on so'zlovchi odam doimo xushyor bo'lishi kerak. Chunki uning yolg'onlari shu qadar ko'pki, qachon va qayerda nima yolg'on ishlatganini eslab qolmasa, izza bo'lishi aniq:

*Yolg'onchi bo'lsang, xotirang yaxshi bo'lsin.*

Biroq qachondir yolg'onning fosh bo'lish kuni bor. Chunki asossiz narsaning umri doimo qisqadir: "O'z og'zi bilan yolg'onni fosh qilar", "Yolg'onning arqoni kalta bo'ladi".

Yolg'onchi o'z yolg'oniga ishonirish uchun juda ko'p vosita-lardan foydalanadi. Avvalgi yolg'onini berkitish uchun yana bir boshqa yolg'on dalil keltiradi. Yolg'onchilikning alomatlaridan biri qasam ichib gapirishda ekanligi aytiladi: "Yolg'onchining alomati birov talab qilmasa ham qasam ichib gapirishdir".

Yomonliklardan yiroq bo'lish va yaxshiliklarga yo'ldosh bo'lishning kaliti tilni saqlashlikdir: "Eng yaxshi do'slik – tilni saqlashlikdir", "Insonning tinchligi tilning halovatidadir",

Har qaysi millat og'zaki ijodida ortiqcha so'zlash zarur ekanligi, ortiqcha gapdan saqlanish kerakligi haqidagi namunalar ko'p uchraydi: "Ba'zan gapirish kurashdan ashaddiy", "Ko'p gap urush qo'zg'atur", "So'zning yaxshisi ozi va sozi", "Taqillagan ovozni eshityapman,

<sup>1</sup>Қарағт. Араб мақоллари. Гаржимон ва нашрга тайёрловчи Сиддиков Нозим. – Тошкент, 2011.

*yanchilayotganini ko'rmayapman (Ko'p gapiraveradiyu, qo'ldan ish kelmaydi).*

Yuqoridagi maqollar o'quvchi va talabalarga aniqlik, soddalik, lo'ndalik, soflik, qisqalik kabi nutq odobi talab hamda mezonlarini uqtirishda qimmatli manbadir.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. "So'z -- chimildiqdagi kelin" maqolining mazmunini izohlang.
2. Nutqning aniq va mazmunli bo'lishi deganda nima tushuniladi?
3. Tinglash odobiga alohida mezon sifatida qaralgan maqollarni ayting.
4. So'zlovchi va tinglovchi munosabatlariga e'tibor qaratilgan maqollarning mazmunini tushuntiring.
5. Til va tafakkurning bog'liqligi qaysi maqollarda uqtiriladi?
6. O'zbek xalq maqollarida ko'rsatilishicha, nutq odobining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat ekan?
7. Nutq odobiga doir maqollarning hayotiy misollar, dalillar asosida tahlil qiling.
8. Nutq odobiga doir xalq maqollaridan Siz qanday xulosalar chiqardingiz?

### **Ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga da'vat**

"Avesto" qomusiy manba sifatida ko'p ma'naviy va ma'rifiy saboqlar beradi. Biz ana shu manbadagi nutq odobi va madaniyati, Zardushtning notiq sifatidagi ibratli faoliyati, sa'y-harakatlari va da'vat-u o'gitlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

"Avesto"da Zardusht asos solgan zardushtiylik dinining qonun-qoidalari, farz va sunnatlari yoritilgan. "Avesto"da bayon etilgan g'oyalarga ko'ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Yaxshilik va ezgulik xudosi Axuramazda yer, o'simlik va boshqa hamma tabiiy boyliklarni yaratgan. Yomonlik va yovuzlik timsoli Axriman Axuramazdaga qarshi to'xtovsiz kurashadi, ammo uni yengish-ga ojizlik qiladi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifoda-lovchi kuchlar yer ostida joylash-gan, yer sathi esa kurash maydonidir. Hayotdagi turfa o'zgarishlar qaysi kuchning g'alaba qilishiga bog'liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va

yomon xulqning o'zaro kurashidan iborat. "Avesto"ning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" kabi muqaddas uchlik (axloqiy triada) da o'z ifodasini topadi. Zardushtiy-larning ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu uch ibora bilan boshlanadi. Zardushtiylik falsafasiga ko'ra yaxshilik va yomonlik insonlarning botiniy olami, ya'ni ichki dunyosida yashaydi. Inson esa Axuramazda ruhidan yaratilganligi tufayli yaxshilik uchun kurashmog'i zarur. Lekin bu dunyoning asoslari yaratilishida Ahriman aralashganligi sababli inson qalbi ham, butun dunyo kabi yaxshilik va yomonlik, sabr bilan nafs, saxovat bilan hasad kabi ezgu va qabiq xususiyatlar kurashi maydonidir. Shu tufayli har bir zardushtiy ta'limotini qabul qilgan shaxs o'zini behdinon – ezgu dindagi deb ataganlar va bir umr zardushtiylik duolari bilan birga zardushtiylik axloqining asosiy uchligi bo'lgan "gumantu" – ezgu o'y, "gutka" – ezgu so'z va "gvarshita" – ezgu amalga rioya qilmoqliklari zarur bo'lgan. Demak, zardushtiylik imoni fikr sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligidan iborat.

"Avesto" dagi "Ord Yasht ashi alqovi" dagi "Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amallarga baxshida etaman, barcha qabih o'y, yomon so'z va yomon ishlardan tiyaman", – degan duolar ham fikrimizning yorqin isbotidir.

So'z Zardusht nazdida yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir. Shuning uchun ovozning shiraliligi va mayinligi, she'rlarni chiroyli o'qiy bilish inson estetik madaniyatining belgisi hisoblangan. "Yasna"da yozilganidek, Zardusht tug'ilgan zahoti she'riy duolarni to'rt marta to'xtab-to'xtab, har gal ovozini balandroq ko'tarib o'qigan. Shu bois "Avesto"ning ko'p o'rinlarida Zardusht nutq odobi qonun-qoidalariga amal qilganligi namuna sifatida keltiriladi:

*Spitaman Zardusht  
Ashiga yolvorganda,  
Aryanam Veyjada,  
Ezgu Daitya bo'yida  
(Shundayin e'zoz etdi,  
Sutla shopirgan xaoma,  
Barsman novda qo'lida,  
Nozik, go'zal nutq ila,  
Ezgu o'yu ezgu ish  
Ezgu amal – qut ila,  
Dil bilan to'g'ri chin ko'z,  
Enghaq pand o'git ila).*



Yoki boshqa bir o`rinda esa Zardushtning duosi, iltijosi quyidagicha tasvirlanadi:

*Nozik nutqu lutf ila,  
Ezgu o`yu ezgu ish,  
Tiniq, ravshan va to`g`ri  
Talaffuzli so`z ila  
(`hin yurakdan Ashiga  
Yolhorib bunday dedi:  
"Ezgu Ashi omad ber,  
Shunday baxt berki menga  
(O)lynasab Xutaosa,  
I`kkriga imon qo`nstin,  
Nutqiga qo`nstin imon..."*

Avestoshunos olim M.Isohoqov ta`kidlashicha, "Avesto"ning so`zlarini tiniq, ravon talaffuz qilinishi lozim bo`lgan, chunki "Avesto" o`z mohiyat-mazmuni bilan ilohiymanba hisoblangan. Zamonlar o`tgan sari muqaddas deb bilingan "Avesto" tili Mazda Yasna jamoalaridagi mavjud tillardan farq qila borgan. "Avesto"ning amali uchun lozim bo`lgan asl tilni saqlash esa zardushtiylikda muhim shart bo`lgan.<sup>1</sup>

"Avesto"da Zardushtning nutq odobi, so`zlash madaniyati borasidagi faoliyati namuna qilib keltirilibgina qolmasdan, xo`roz tilidan insonlar yaxshi, ezgu so`zlarni so`zlashga, yomon kalom aytishdan saqlanishga da`vat etiladi: "Yana xo`roz deydi: "Hargiz bu uchlikda sustkashlik qilma: ezgu fikratda, ezgu amalda va ezgu kalomda". Ushbu "yomon uchlikdan yuz bur! Yomon fikratdan, yomon amaldan, yomon kalomdan".

"Avesto"ning 19-naskidagi suhbatda keltirilishicha, yaxshi so`z muqad-dasdir:

- Ezgu fikr nima?
- Daslabki pok niyat.
- Ezgu so`z nima?
- Muqaddas so`z.<sup>2</sup>

Ashavanlar barcha amallarda, jumladan, so`zlashda ham ezgulikka rioya qilishga aqd qiladilar: "Biz – er ashvanlar ezgu andisha bilan yashaydirmiz;

<sup>1</sup> Авесто. Орд. аш. Ашти алқови // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. - № 3. – Б. 75

<sup>2</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарк, 2001 – Б. 65.

*Ezgu kalom bilan soʻylaydirmiz;  
Ezgu amalga rioya aylagaydirmiz...*<sup>1</sup>

Zavt va Rospiy tomonidan ham ezgu amallar va ezgu soʻz ulugʻlanadi: “*Ezgu niyat, ezgu soʻz va ezgu amalni olqishlayman!*”

*Niyat, soʻz va amallar ichida men ezgu niyat, ezgu soʻz va ezgu amalni tanlayman.*

*Men barcha qabiq andisha, qabiq soʻz va qabiq amaldan yuz buraman.*<sup>2</sup>

Asarda ezgu duolar qilinar ekan, “*Samimiy soʻzlar olamga boʻlsin!*” – deya niyat qilinadi va rostgoʻylik, soʻzda sobit turish muhimligi koʻp bora taʼkidlanadi. Bu Axuramazda nutqida ham kuzatiladi:

*Mening qasamlarim oltita:*

*birinchi – soʻz qasami;*

*ikkinchi – qoʻl qasami;*

*uchinchi – qoʻy qasami;*

*toʻrtinchi – sigir qasami;*

*beshinchi – odam qasami;*

*oltinchi – ekin qasami....*<sup>3</sup>

Koʻrinadiki, ahd-u qasamlarning birinchisi va ulugʻi soʻz qasamidir.

“Avesto”da Yasht (lugʻaviy maʼnosi – “qadrlash”, “ulugʻlash”) ning uchinchi bobida esa bunday xabar qilinadi: “*Xudo Mitrani biz ulugʻlaymiz. Unga hech kim yolgʻon gapirolmaydi: uyda – oila boshligʻi, urugʻ oqsoqoli, qabila yoʻlboshchisi va mamlakat sardori yolgʻonchi boʻlsa, gʻazablangan Mitra butunlay oilani, urugʻni, qabilani, mamlakatni va ularning boshliqlarini ham tamoman yoʻq qiladi*”. Bundan koʻrinadiki, “Avesto” yashtlari oʻz mazmuni bilan insonlarni rostgoʻylikka, toʻgʻri soʻzlikka daʼvat etadi.<sup>4</sup>

Mazkur daʼvatlar, Zardushtning nutq ijod etish borasidagi fazilatleri, amallari bizni ezguliklarga, ezgu maqsadlar bilan yashashga, ana shu ezgulikni bir qirrasini boʻlgan ezgu soʻz aytishga – nutq odobi, soʻzlash madaniyatiga chorlashi bilan ham qimmatli va muqaddasdir.

“*Madh etaman ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal ila ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalni. Jami ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga*”

<sup>1</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: давлат университети, 2001. – Б. 99.

<sup>2</sup> Авесто, 56-6.

<sup>3</sup> Авесто, 117-6.

<sup>4</sup> Жураев Н. “Авесто” зарурати // Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 6.



*bag`ishlanaman, jumla yovuz fikrat, yovuz kalom va yovuz amallardan yuz buraman`.*

Bunday mo`jizakor da`vat insonni ming bir hujayrasini, tizginsiz va chegarasiz xayolotini, orzu-maqсадlarini harakatga keltiradigan ruhiy holat, axloqiy da`vat, ma`naviy chaqiriq har qanday bag`ritosh insonning qalbini ham junbushga keltiradi. Unda mehr-shafqat, yaxshilik hislarini uyg`otadi. Oqibatda ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal – xatti-harakat, munosabatlar, pokiza xayolot va yaxshiliklar bilan yashash umidi odamni chulg`ab oladi. Inson o`zining hayotini, umrini mana shu ezguliklarga baxshi-da etib, jamiki yovuz fikrat – yovuz xayolot, yovuz orzu-umid, yovuz kalom – yovuz so`z, munosabatlar, yovuz amal – yovuz xatti-harakatlar va fe`l-atvorlardan yuz burib, komillikka intiladi. Olimu fuzalolar e`tirof etganlaridek, “Avesto”ning butun ahamiyati va qudrati ham shunda.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. “Avesto” dagi axloqiy-falsafiy mohiyat nimadan iborat?
2. So`z Zardusht nazdida nimaning ifodasi?
3. Asarda qo`llangan “ezgu so`z”, “ezgu fikrat” atamalarining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
4. “Yovuz kalom” atamalarining mazmun-mohiyatini dalillar asosida tushuntiring.
5. “Avesto”da qanday qasamlar haqida ma`lumot beriladi?
6. Rostgo`ylikka, to`g`rilikka da`vat etilgan yashlar mazmunini izohlang.
7. “Avesto”ning 19-naskidagi suhbat nima haqida?

### **So`zda sehr va hikmat bor**

Ajdodlarimizdan meros bo`lib qolgan yozma adabiyotda til, nutq, nutqiy odob haqida juda qimmatli fikrlar mavjud. Ularni o`rganish o`tmish ajdodlarimizning tilga munosabatini, ularning nutqiy odob, nutqiy madaniyat mahoratiga qanday qilib erishganliklarini belgilashga imkon beradi. Bu meros hozirda o`zbek nutqiy madaniyatining odob-axloq, nafosat, ruhiyat, falsafiy va ijtimoiy ta`limot bilan aloqador tomonlarini tushunish va ilmiy baholash hamda yechimlar uchun g`oyatda muhimdir.

Bunday merosning tarkibiy va asosiy qismini diniy manbalar – “Qur`on”, “Hadis”lar hamda ulardagi ta`limotni sharhlashga bag`ishlan-

gan yozma yodgorliklar, xalq orasida saqlangan og'zaki aytib yuriluvchi rivoyatlar, hikoyalar va afsonalar tashkil qiladi. Bu asarlarda, umuman, til, nutq, jumladan, nutq odobi, nutqiy mezonlar, hattoki, nutqiy to'g'ri-lik, talaffuz, notiqlikning boshqa xil sirlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Islom dini inson tili orqali amalga oshadigan bir qator xislatlar – rostgo'ylik, xushmuomalalik, chiroyli, samimiy gap-so'z, gapida turishlik kabilarni ulug'lab, bu fazilatlarini mo'min-musulmonlarning asosiy burchi, deb hisoblagani holda, yolg'onchilik, qasamxo'rlik, ezmalik, chaqimqilik, tuhmat, bo'xton, so'kag'onlik, g'iybat, mish-mish, gan tashishlik, birovning gapini poylash singari yomon odatlarni katta gunoh sifatida tamoman qoralaydi. “Qur'on”da qayd qilinishicha, “*Kishi noo'rin aytilgan bir so'z bilan o'ziga dushman orttirgaydir*”.

Yolg'on so'zilik Islomda qattiq qoralanadi va bu munofiq odamning asosiy belgilaridan biri, deb ta'kidlanadi. Bu haqda payg'ambar shunday degan: “*Munofiqlarning uchta alomati bor: so'zlasa – yolg'on so'zlar, va'da qilsa bajarmas, omonatga xiyonat qilur. Yana quyidagi to'rtta xislat kimda bo'lsa, aniq munofiq bo'lgaydir, kimdagi ulardan bittasi bo'lsa, uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir xislati bor ekan deyiladir*”:

- omonatga xiyonat qilgaydir;
- so'zlasa yolg'on so'zlagaydir;
- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urushib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qilgaydir”.

Islomning til rostgo'yligi, nutqiy adolat, nutqiy poklik, halollik tushunchalari haqidagi ta'limoti nafaqat yolg'onchilikni, balki unga aloqador bo'lgan bir qator boshqa salbiy xislatlarni ham qat'iy qoralaydi va musulmonlarni ulardan xalos bo'lishga chorlaydi. Bular quyidagilar:

1. So'kish, so'kinish, sharmsiz so'zlarni aytish gunohdir, hatto bunga amal qilmagan odam musulmon bo'lolmaydi. Bu g'oya quyidagi hadislarda ifodalangan: “*Musulmon odamning so'kmog'i – buzuqlik, urushmog'i – kofirlikdir*”. Shunga ko'ra, ayniqsa, haj davrida, ro'za paytida gunoh so'zlarni aytish qat'iy qoralanadi: “*Oralaringizda eng yaxshingiz xulqi yaxshingizdir*”, – der edilar. Janob Rasululloh xotinlari va Oyshaga doimo: “*Shoshmagil, yo Oysha, xushmuomala bo'lgil, senga qo'pollik yarashmaydir*”, – der edilar.

2. Islom bekorchi gaplar qilishni, ezmalikni ma'n qiladi. Abu Sa'id al-Xudriyning rivoyat qilishicha, Rasululloh: “*Ko'chalarda bekorchilikdan, ezmalanib gaplashib o'tirmoqdan qochingiz*”, – der edilar.

3. Rasululloh yolg'on-yashiq gaplarni o'ylab chiqarish, mish-mish tarqatishni ham qoralagan: *"Ul zot mish-mish tarqatmoqni, ezmalik qilmoqni, mol-dunyoni isrof qilmoqni, ochko'zlik qilmoqni va qizlarni tiriklayin ko'mib qo'ymoqni (qadimgi arablarda shunday odat bo'lgan) ma'n qilganlar"*.

4. Islom gap tashuvchilik odatini makruh deb biladi va bunday odat egalarning ahvoli yomon bo'lishini ta'kidlaydi. "Hadis"da yozilishicha, *Oллоh taolo: "Gap tashib yuruvchilarning kishilar qalbiga nashtar uruvchi, ularni tahqirlovchi va badnom qiluvchi har bir tuhmat, bo'hton va mazahlari uchun hollari voy bo'lgay", – deydi.*

5. Islom birovdan noo'rin shubha qilish, tirnoq ostidan kir qidirish, o'zgalarning gaplarini o'g'rincha eshitish, poylash singari salbiy odatlarni ham inkor qiladi, yomon xususiyat sifatida qoralaydi va kishilarni bunday xislatlardan xalos bo'lishga chaqiradi. Chunonchi, *Abu Hurayraning rivoyaticha, Rasululloh shunday o'git qilgan: "badgumon bo'lmanglar, badgumonlik – yomon so'zdir. Gap poylamanglar, bir-biringizga hasad qilmanglar, bir-biringizni yomon ko'rmanglar, arazlashmanglar. Aka-uka tutinib, Oллоhning (solih) bandalari bo'linglar", – dedilar.*

Keltirilgan parchada dilni xufton qiluvchi va kishilarni bir-biriga dushman qilib qo'yuvchi beo'rin bahslashuvlar yomon xulq sifatida inkor qilinmoqda.

6. Islomda tuhmat, buhton, yolg'onchilik singari odatlar ham razil xislat, deb hisoblanadi. Ma'lumki, bu salbiy qiliq ham inson tili orqali amalga oshadi. "Hadis"ning boblaridan birida ta'kidlanishicha, *Oллоh Taolo: "Tuhmat qilmoqdan saqlaninglar", – degan. Abu Hurayra Muhammad payg'ambarning quyidagi fikrini keltirgan: "Kimki tuhmat qilmoq va tuhmatga ishonib ish ko'rmoqdan tiyilmay, johillikda davom etaverar ekan, uning yeb-ichmoqdan tiyilmog'ining (ro'za tutmog'ining) Oллоh taologa hojati yo'qdir"*.

7. Islom nihoyatda qoralovchi odatdan biri til vositasida yuzaga keluvchi chaqimchilik va g'iybatdir. Hadislarda ta'kidlanishicha, eng katta gunoh: *"Oллоhga shak keltirmoq va ota-onaga oqlik qilmoq (itoat qilmaslik)". Rasululloh ta'kidlashicha, g'iybat qilish gunohi yuqoridagi og'ir gunohlar bilan tengdir.*

8. Islom ta'limotida qayd qilinishicha, yomon odat va ulkan gunoh hisoblanuvchi narsalardan biri qasamxo'rlik va o'z qasamida turmaslik-dir. Bu masala xususida "Hadis"larda quyidagilarni ba'zi nozik tomonlar ta'kidlanadi:

a) yolgʻondan qasam ichish gunohi azimdir. *Abdulloh Ibn Ma'sud rasululloh yana quyidagilarni aytganini rivoyat qilgan: "Kimki qasam ichib bir musulmonning molini tortib olsa, Oллоh taolo qiyomatda uni darg'azab holda qarshi olgaydir", – dedilar, so'ng buning tasdig'i uchun Oллоh taoloning kitobidan quyidagi oyatni tilovat qildilar: "Arzimas matohni deb Oллоh taologa bergan va'dalari birlan qasamlarni buzgaylar, bundaylar oxiratdan benasib bo'lib, Oллоh taolo ular bilan so'zlashmagaydir";*

b) kishi otasining nomini aytib, ya'ni o'rtaga qo'yib qasam ichishi mumkin emas. Bu haqda Rasululloh bildirgan fikrlar quyidagi hadis-larda yorqin ifodalangan: *"Oллоh taolo otalaringiz nomini o'rtaga qo'yib qasam ichmoqni sizlarga ma'n qilgan ermasmi erdi?...";*

d) Oллоh taolo nomini aytib qasam ichish mumkin. Lekin kimki bu qasamni buzmasa, unda sobit tursa, jannatga tushadai, kimki buzsa, oxiratdan benasib bo'ladi. Mana shu qat'iy talablar "Qur'on"ning oyatlari va hadislarida o'z mujassamini topgan.

"Qur'on" ning "Oli Imron" surasidan olingan oyat: *"Oллоh taologa bergan va'dalari bilan qasamlarini (bu dunyodagi) arzimas matohga almashtirg'uvchilar oxirat ne'matlaridan benasib qolgaylar va Oллоh taolo qiyomat kuni ularga so'zlamas ham, qiyo boqib qaramas ham, ular dardli azobga muhtalo bo'lgaylar".*

9. Islom odamning og'iz ko'pirtirib o'z-o'zini maqtashi yoki birovni noo'rin madh etishni ham qoralaydi. Bu haqda "Hadis"ning to'rtinchi kitobidagi 54-bobida gap boradi va bob "O'zini o'ziga maqtamoqning makruhligi haqida" deb nomlangan. *Abu Muso shunday rivoyat qilgan: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bir kishining ikkinchi bir kishini o'zini o'ziga maqtab, ko'klarga ko'tarayotganligini eshitib qolib: "Uni o'ldiringiz, yetim belini sindiringiz", – dedilar". Abdurahmon ibn Baqra shunday naql qiladilar: "Bir kishi Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning huzurlarida boshqa bir kishini maqtab, ko'klarga ko'tardi. Shunda Janob Rasululloh: "Voy burning yerga ishqalagur, do'stingning bo'ynini sindirding-ku", – deb bir necha bor takrorladilar. So'ng: "Agar birortangiz kimnidir haqiqatdan ham maqtovga sazovor deb bilib maqtamoqchi bo'lsangiz, u holda: "Men uni bunday va bunday deb hisoblayman", – deb aytingiz. Chunki Oллоh taolo uni (sizdan ko'ra yaxshiroq) bilg'aydir. Oллоhning bandasini Oллоhning o'ziga maqtamangiz", – dedilar.*

10. Islom har qanday musulmon uchun farz qilib qo'ygan xislatlardan biri salomlashishi va salomga alik olishidir. Birov salom

bersa, alik olish shart, hatto “Qur’on” salomga nisbatan chiroyliroq alik olishni tavsiya qiladi: *“Qachonkim sizlarga salom berishsa, siz undan yaxshiroq (chiroyliroq, quyuqroq) alik oling, xuddi shunday javob qaytaring”*. (Niso surasi, 86-oyat)

Islomda salomlashishning ma’lum qoidalari bayon qilingan. Bunga ko’ra kishilar tanisa tanimasalar bir-biri bilan salomlashishlari yaxshi xulq sanaladi. Shuningdek, arazlashib qolgan kishilar uch kundan keyin yarashishlari, bunda birinchi salom bergani eng yaxshi odam deb baholanadi. Chunonchi, Abdulloh ibn Umarning rivoyat qilishicha, bir odam Rasululloh sallallohu alayhi vasallamdan islomda eng yaxshi amal qaysidir, deb so’radi. Janob Rasululloh ochlarni to’ygazmog’ing tanigan tanimagan odamga salom bermog’ing deb javob qildilar.

Salomlashish yuzasidan islom qat’iy qoidalar belgilagan va bu qoidalar hadislarda aniq, lo’nda ifodalangan: *“Kichik kattaga, o’tkinchi o’tirganga, ozchilik ko’pchilikka salom bergaydir”*. *“Suvoriy piyodaga, piyoda (o’tkinchi) o’tirganga, ozchilik ko’pchilikka salom bergaydir”*.

Hadislarda, shuningdek, nutq odobi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Hadisi sharifda *“Iymon so’z va amaldan iboratdir”* deyiladi.

So’zning qudrati, hikmatini ulug’lovchi hadislar juda ko’p. Chunonchi, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning *“Al-jomi’ as-sahih”* nomli hadislar jamlangan kitobidan olingan *“Kishi birodari uchun hikmatli so’zdan afzalroq hadya qilolmaydi. Chunki shu hikmat sababli Tangri uni to’g’ri yo’lga solib qo’yadi yoki yomon yo’ldan qaytaradi”*, *“Kishining go’zalligi – uning tilidan bilimur”*, *“Inson xatoni ko’proq o’z tili bilan sodir qiladi”*, *“Tangri nazdida eng yaxshi gap – rost gapdir”*, *“Muloyimlik – hikmatning boshidir”*, *“Rostgo’ylikda xavfu xatar ko’rsanglar ham rost so’zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko’rib turgan bo’lsangiz ham yolg’ondan saqlaninglar. Chunki baribir yolg’onning oxiri voy”* kabi hadislar fikrimizning yorqin dalilidir.

Hadislarda yaxshi so’z hatto sadaqa berish bilan tenglashtiriladi: *“Yaxshi so’z ham sadaqadir”*. Islom dinida sadaqaning halol mehnat bilan topilgan narsadan berish tavsiya etiladi. Mana shunday qilib berilmagan sadaqadan chiroyli muomala va so’z afzal ko’riladi: *“Ketidan ozor ergash-tirib keladigan sadaqadan ko’ra, ko’ngilni ko’taradigan va mahfiratli so’z afzaldir”*.

Madaniy nutqning asosiy sifatlaridan biri uning sofligi va mantiqiyligidir. *“Muhammad payg’ambar qissasi. Hadislar”* kitobida ko’rsatilishicha, *“Ba’zi bir so’zda sehr, ba’zi bir she’rda hikmat bordir”*. Bu bilan mo’min insonlarni so’zlarning sehru jozibasi, ma’no-siga e’tibor

berib qo'llashga da'vat etiladi. Aks holda, ya'ni ma'nosiz so'zlarni ishlatish bilan Allohga shirk keltirib gunohga botish mum-kinligi ta'kidlanadi: *"Ma'nosiz, g'ayrisha'riy so'zlar bilan dam solish, tumor taqish va xotinlarning erga issiq-sovuq qilishi shirk hisoblanadi"*.

"Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar" kitobida yana inson ko'ngli hamisha yaxshi, mazmunli, hikmatli so'z aytishga moyilligini uqtirish orqali bunga intilishi va loyiqligi ham ta'kidlanadi: *"Hikmatli so'z mo'min kishining yo'qotgan narsasidir, qaerdan topsa uni olishga haqlidir"*.

Xullas, hozirgi har bir mutaxassisdan kasbiy yetuklik talab etilayotgan davrda yoshlarni nutq madaniyati va odobiga doir malaka hamda ko'nikmalarni egallamog'i muhim va asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda xalq maqollari, muqaddas diniy manba-lardagi ibratli pandu o'gitlar, hadislar muhim manbadir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Muqaddas manbalarda munofiqning nechta alomati keltiriladi?
2. Qaysi holatda yeb-ichmoqdan tiyilmoqlikning hojati yo'qligi aytiladi?
3. Til bilan bog'liq qaysi illat og'ir gunohlar bilan tenglashtiriladi?
4. Muqaddas kitoblarda salomlashishning qanday qoidalari keltiriladi?
5. Qaysi amal eng yaxshi amal sifatida e'tirof etiladi?
6. Madaniy nutqning asosiy sifatleri qaysi?

### **So'z – borliq**

(Abu Nasr Farobiyning nutq madaniyatiga doir qarashlari)

**X asrning qomiusiy allomasi Abu Nasr Farobiyning zamondoshlari, universal bilimga ega bo'lgani bois, "Sharq Aristoteli" deb ataganlar.**

**Islom Karimov**

Jahon notiqlik san'ati tarixida Yunoniston va Rim notiqlik maktablari alohida o'rinni egallaydi. Ularning tajribalari o'rta asr va keyingi davr notiqligining rivojlanishida katta rol o'ynadi. O'rta Osiyoda notiqlik san'atining asosi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Mahmud



Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asarida nutq odobiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

"*Ardam bashi – til*" degan maqol keltiriladi unda. Ardam – hunar, fazilat degan ma'nolarni anglatrsa ham, "odob" so'ziga yaqinligini anglab olish qiyin emas. Demak, til odobi – inson ma'naviyati va kamolotida yetakchi mezon deb uqtirilmoqda.<sup>1</sup>

O'rta Osiyoda notiqlik san'ati – voizlik, notiqlar – voiz, nutq esa va'z deb atalgan. Bu hudud IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotiga shunday allomalarni yetishtirib berdiki, ular tomonidan yaratilgan tafakkur mahsuli asrlar o'tsa ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'rta asr ilm-fani, madaniyati Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi.

O'rta Osiyoninggina emas, balki Yaqin va O'rta Sharqning mashhur mutafakkiri Abu Nasr Farobiy IX-X asrlarda yashab ijod etgan. U ilmnning turli sohalarini mukammal bilgan va ular haqida o'z fikrlarini yozib qoldirgan. Jumladan, nutq odobi va madaniyatiga doir fikrlari ham qimmatlidir.

"Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida"gi asarida ilmlarni turlarga bo'lar ekan, til ilmi va grammatikani alohida ajratib ko'rsatadi: "*Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi, jismlarga, ya'ni substantsiya va aktsidentsiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman*".<sup>2</sup>

Alloma grammatika ilmi borasida ham o'z fikrlarini bildirib, uning nutq tuzilishini o'rgatadigan ilm ekanligiga e'tiborni qaratadi: "*Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substantsiya va aktsidentsiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi*". (179-bet)

Har qanday ilmiy yoki adabiy merosning umrboqiyiligini ta'minlovchi omil ularning muayyan millat yoki xalq taqdiri uchungina emas, umumbashariyat taqdiri uchun xizmat qilishidadir. Shunday qarashlar borki, ular zamon va makon chegarasini bilmaydi. Abu Nasr

<sup>1</sup>Жуманиёзов Р. Дил – кулф, тил – капит. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 8.

<sup>2</sup>Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 179. Келтирилган мисоллар шу манбадан олинди Кейинги ўринларда саҳифалар кавс ичида берилди.

Farobiy ilmi hikmat deb yashash uchun qator fazilatlariga ega bo'lish lozimligi aytadi. Ular orasida til va nutq bilan bog'liq jihatlari ham mavjud: *"Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog`-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so`zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to`g`risida bilimni egallasin"*. (182-bet)

So`zning qudratli kuchi barcha davrlarda tan olingan. Tarixchi Menandr so`zdan kuchliroq narsa yo`q ekanligini ta`kidlaydi. Farobiy yoshlarni kasb-hunar, ish tajriba, jahd va g`ayratga ega bo`lishlari zarurligini aytib, uarda bu ko`nikmalarni hosil qilinish yo`llarini ko`rsatadi: *"Amaliy fazilatlar va amaliy san`at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu, odatda, ikki yo`l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so`zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so`zlar yordamida hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamlardagi g`ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi"*. (85-bet)

Buyuk mutafakkirlar faoliyatining asosini jahonni ilm nuri bilan yoritish, insonlarni ezgulikka, tinchlik-totuvlikka da`vat etish kabi masalalar tashkil etadi. O`zida axloqiy jihatlarni mujassam etgan insonlar bilangina dunyo tinchligi saqlanadi. Farobiy o`zida o`n ikki tug`ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli bo`la olishini aytadi. Zaruriy beshinchi xislat sifatida so`zlarning aniq bo`lishi, fikrni, aytmoqchi bo`lgan mulohazalarni ravon va ravshan bayon eta olish kerakligi haqida so`z boradi.

Olim insonda mavjud quvvatlar haqida ham ma`lumot berar ekan, so`zlash quvvatini alohida ta`kidlab o`tadi. Alisher Navoiyning shu mazmundagi misralari yodga keladi:

*Insonni so`z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo`q ondin.*<sup>1</sup>

Farobiy shunday ta`riflaydi: *"Odamzod ibtidosi bo`lmish quvvat-lar, masalan, so`zlash quvvati, tanlash quvvati, xayol quvvati, sezish quvvatlaridir. Bulardan so`zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-*

<sup>1</sup> Тафаккур гулшани. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 165.

*atvoridagi xunuk va go`zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo`lgan-bo`lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli yoki foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi*". (188-bet)

Inson mohiyati baxt-saodatga erishuv ekan, bu maqsadni o`zining oliy g`oyasi va istagiga aylantirib, bu yo`ldagi barcha imkoniyatlardan foydalanishi zarurligi bundan necha asrlar ilgari aytib o`tilgan hikmatdir. Bu imkoniyatlar orasida nutqdan to`g`ri foydalana olish, so`z va uning qudratidan ezguliklar yo`lida foydalanish kabi masalalar alohida ahamiyatga ega.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Ilmlarning kelib chiqishi to`g`risida"gi asarda til ilmi va grammatika qanday ta`riflanadi?
2. Grammatika ilmi qanday masalalrni o`rganishi aytiladi?
3. Nima uchun tarixchi Menandr so`zdan kuchliroq narsa yo`q ekanligini ta`kidlaydi?
4. Farobiy so`zning kuchi haqida qanday fikr bildiradi?
5. Insonda qanday quvvatlar bor? So`zlashuv quvvatining bosh-qa quvvatlardan farqi nimada?

## **Kaykovusning nutq odobi haqidagi qarashlari**

Nutq odobi va madaniyati masalalariga qadimdan alohida e`tibor berilgan. Qur`oni karim, hadis va "Avesto"dagi o`gitlar, ko`rsatmalar, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi allomalarning nutq odobi haqidagi qarashlari fikrimizning dalilidir.

Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan "Qobusnoma"da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo`lib, uning 6-7-boblari so`z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlar orqali o`quvchini yoqimli, muloyim, o`rinli so`zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So`zlaganda o`ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko`z oldiga keltirib gapirish kerakligini, o`zini xalq orasida oddiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, mahmadonlik qilish, ko`p gapirish donolik belgisi emasligini aytadi: *"Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo`lsang ham, o`zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so`z bilimdonligi vaqtida bekor bo`lib qolmagaysan. Ko`p bilu, oz*

so`zla, kam bilsang, ko`p so`zlama, chunki aqlsiz kishi ko`p so`zlaydi, deganlarki, jim o`tirish salomatlik sababidir. Ko`p so`zlovchi aqlli odam bo`lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi”, “Yaxshi so`zla, ammo mahmadona bo`lma, ezmalik kaltabinlikdir”.

U farzandini yoqimli, muloyim, o`rinli so`zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: “So`zni o`z joyida so`zla, joyida aytilmagan so`z, agar u yaxshi so`z bo`lsa ham, yomon ko`rinadi”. Bu kabi axloqiy, nutq madaniyatiga oid nasihatimiz gaplar juda ko`p o`rinlarda keladi.

“Qobusnoma”ning “Suxandonlik bila baland martabali bo`lmoq zikrida” nomli yettinchi bobida va asarning boshqa bir necha o`rinlaridagi nutq odobi xususidagi didaktik qarashlar diqqatga molikdir.

Kaykovus, avvalo, so`zning, so`z san`atining ahamiyati va mavqeini yuqori qo`yadi: “Barcha hunardin so`z hunari yaxshi-roqdur, nedinkim, hamma maxluqotdin odam yaxshiroq yaraldi va o`zga jonivorlardin odam o`n daraja ziyodadir va bu o`n daraja odamning badanida hamisha bordur.”, – deb yozadi.<sup>1</sup>

Kaykovus har bir kishi notiq, so`zamol bo`lishi, biroq yolg`onchi bo`lmasligi lozimligini ta`kidlaydi: “Kishi suxandon, suxango`y (notiq) bo`lishi kerak. Ammo, ey farzand, sen suxango`y bo`lg`il va lekin durutgo`y (yolg`onchi) bo`lmag`il.” (48-bet).

Alloma nutq odobi xususida fikr yuritar ekan, so`zni nutq ma`nosida qo`llab, uning mazmun-mohiyatini to`rtga turga bo`lib ta`riflaydi: “...so`z ham to`rt navdur: biri, bilinmayturg`on va aytilmayturg`on; ikkinchisi, aytulaturg`on va bilinaturg`on; uchinchisi, ham bilinaturg`on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytsa bo`laturg`on; to`rtinchisi, bilinaturg`on va aytilmayturg`on”. (50-bet)

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida nutq odobiga qo`yilgan talablar quyidagilardan iborat:

1. So`z (nutq) ma`noli bo`lishi lozim: “Ey farzand, so`zning yuzin va orqasin bilg`il va ularga rioya qilg`il, har na so`z desang yuzi bila degil, to suxango`y bo`lg`aysan. Agar so`z aytib, so`zning nechuk ekanini bilmasang qushga o`xsharsanki, unga to`ti derlar, ul doim so`zlar, ammo so`zning ma`nosini bilmas”. (51-bet)

Ma`noli so`zlash notiqlikning birinchi sharti bo`lib, buni alloma majoziy tarzda – o`z so`zini ma`nosini bilmaydigan to`ti timsolida

<sup>1</sup>Кайковус. Қобуснома. Форсчадан Муҳаммад Ризо Огахий таржимаси. 4-нашри. – Тошкент: O`qituvchi, 2006. – Б.38. “Қобуснома”дан олинган кейинги парчалар ҳам асарнинг шу тўлдирилган иккинчи нашридан олинди, кавс ичида асар саҳифаси кўрсатилди.

uqtiradi. Kaykovus talqiniga ko'ra, ma'no-mazmunsiz so'zlayotgan kishi misoli to'ti kabidir.

2. So'z (nutq) sodda, tushunarli bo'lmog'i kerak. Bu notiq mahorati alomatidir: *"Suxango'y shul kishi bo'lg'ayki, u har so'zni de xalqqa ma'qul bo'lg'ay va xalq ham har so'z desa, unga ma'qul bo'lg'ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirg'ay, yo'q ersa ul inson surat mavjud bo'lg'on bir hayvondur"*. (52-bet)

Kaykovus ta'kidlashicha, so'zi tushunarli bo'lmaganlar inson shaklidagi hayvonlardir.

3. So'z (nutq)da mazmuni to'g'ri ifoda qilishga intilish kerak. Nuqson sharoitga mos ravishda bir xil izhor qilinmog'i lozim: *"Gar so'zni insonni hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni sindirmag'il, to'g'ri ta'kid qilg'il."* (53-bet)

4. So'z (nutq) so'zlaganda tinglovchilarning kasbi-korini, saviyasi va ehtiyojini qiziqishini e'tiborga olish lozimligini uqtiradi: *"... xosga xos so'z, omiyat omiyat so'z deg'il, toki u hikmatga muvofiq bo'lsun va eshitg'an kishiga og'ir kelmasin, yo'qsa so'zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag'ay. Undin so'ng ularning rizosiga qarab so'zlag'il, to'g'ri salomon bo'lg'aysan"*. (53-b.)

Albatta, alloma uqtirgan bu jihat nutq jarayonida juda muhim, chunki har qanday nutqning mukammalligi notiq va tinglovchi munosabatlar bilan mutanosibli bilan belgilanadi.

5. Nutqda til boyligidan o'rinli, maqsadga muvofiq foydalanish intilish kerak. Nutq uchun kerakli, zarur so'z va iboralarni tanlay olish muhim: *"... har kishining ahvoli o'z so'zining ostida pinhondir, ya'ni har kishi so'zni bir iborat bilan aytsa bo'lur, eshitg'on kishining esa ko'ngli undan tira (qorong'u) bo'lg'ay va yana o'shal so'zni bir iborat bila aytsa bo'lurkim,, eshitg'on kishining joni undan rohatda bo'lg'ay"*. (51-bet)

6. So'z (nutq) mazmundor bo'lish bilan birga ta'sirchan ham bo'lmog'i kerak: *"Ilmni yaxshi o'rgang'il. Bilg'on ilmingni yaxshi iboralar bila bayon qilg'il, to bema'ni da'vo bila xijolatma bo'lmag'aysan. Va'z va pandni xavf va rijo bila aytg'il. Shundoq so'zlag'il ko'proq aytg'ilki, o'zing unga qodir bo'lsang va senga ul so'z yaxshi ma'lum bo'lg'on bo'lsa, toki bema'ni da'vo bila sharman bo'lmag'aysan"*. (125-bet)

Yana boshqa bir o'rinda nutqda kinoyali so'zlardan ko'ra majozli ma'noli so'zlardan, ya'ni metaforalardan foydalanish samarali ekanligi

istehzoli gapni (ko`p) so`zlama, mumkin qadar istioralarni ishlatgil. Madhda istiorani ishlatgil". (98-bet)

7. So`z (nutq)ni izchil, mantiqli bo`lishi lozimligini uqti-radi: "Agar munozara qilmoq tilasang, xasm (dushman)ga qarag`il, agar uning bila tortishmoqqa quvvating bo`lsa va so`z uzaysun desang, dalillar va misollar bilan munozara qilg`il". (123-bet)

8. So`z (nutq)da aniqlik, me`yor, o`lchov bo`lmog`i lozim: "Oxirgi maqsadni aniq ma`lum qilg`il va so`zni ziynat bila deg`il. Bag`oyat qisqa va bag`oyat uzun so`z aytmag`il, bema`ni so`z demag`il". (123-bet)

9. So`z (nutq) nafis, ko`rkam, go`zal bo`lmog`i kerak. U kishi-larda ezgulikka rag`bat uyg`otishi lozim: "Oxirgi maqsadni aniq bayon qilishga, nafis so`zlashga harakat qil". (85-bet)

Yana: "Bu to`rt nav so`zning ikki yuzi bordur. Biri xo`b va biri zisht (xunuk). Har so`zni xaloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul bo`lsin va xaloyiq sening so`z bilan baland martabaga egalig`ingni bilsunlar".(50-51-bet)

10. So`z (nutq) ta`sirchan bo`lishi va notiq tinglovchilarni ruhiyatiga mos ish ko`rishi, harakatlari nutq mazmun-mohiyatiga mutanosib bo`lishi kerak: "Sovuq so`zlik bo`lmag`il. Sovuq so`z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo`lur". (53-bet).

11. Notiq mazax va hazildan o`z o`rinli foydalanishi, uyatli, dag`al so`zlarni qo`llamasligi lozim: "Ey farzand, bilg`ilkim, ko`p kishilar debdurlarkim, mazoh – fasodning muqaddimasidur. Mazoh, ya`ni xonaki so`z bila kishiga daxl etmakdin hazar qilg`il". (73-bet)

"Qobusnoma" da so`zga e`tibor berish, shirinsuxanlik, so`zning qudrati haqidagi fikrlar talayginadir: "So`zni bag`oyat ulug` bilg`il, so`z osmondan kelmas va ul xor narsa emasdur".(52-bet), "Oz so`zlag`il va uzoqni o`ylag`il" (123-bet), "Ko`p bilib, oz so`zlag`il, va kam bilib, ko`p so`z demag`il". (53-bet) kabi.

Kaykovusning nutq odobi haqidagi bu ibratli va hikmatli qarashlarini maktablarda ona tili va adabiyot, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida, oliy o`quv yurtlarida nutq madaniyati darslarida o`rgatish, uqtirish ijobiy samara beradi. Zero, alloma uqtirganidek, notiqlik kasbiy mahoratning, zamonaviy til bilan aytganda kompetent-likning asosiy bir qirrasidir.

### Nazorat uchun savollar:

1. "Qobusnoma"da nutqning mazmun-mohiyati necha turga bo`linadi?
2. Kaykovus nutq odobiga qanday talablar qo`yadi?

3. Qaysi xususiyat notiqlik mahoratining belgisi hisoblanadi?
4. Soʻz (nutq)da mazmuni toʻgʻri ifoda qilishga intilish deganda nima tushuniladi?
5. Nutq odobi qanday talablari nimalardan iborat ekan?
6. Asarda “xos soʻz” va “omiy soʻz” birliklari qanday maʼnoda qoʻllangan?
7. Kaykovus hazil va mazax soʻzlardan foydalanish haqida qanday fikr bildiradi?

## **Mahmud az-Zamaxshariyning nutq madaniyati haqidagi qarashlari**

Jahon fani va madaniyatiga salmoqli hissa qoʻshgan ulugʻ alloma Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy boy ilmiy meros qoldirgan. Tilshunoslik, lugʻatshunoslik, adabiyot, geografiya, axloqshunoslik, falsafa, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelgan.<sup>1</sup>

Olimning “Navobigʻ ul-kalim” yoki “Al-kalim an-navobigʻ” deb ataluvchi asari ham muhim ahamiyatga ega. Allomaning Makkada yashagan paytida yozilgan bu asar hikmatlar, nasihatlar majmuasi boʻlib, turli masalalarni oʻz ichiga oladi.

Asar oʻzbek tiliga Ubaydulla Uvatov tomonidan tarjima qilingan va 1992-yili “Nozik iboralar” nomi bilan nashr etilgan. Zamaxshariy-ning turli masalariga oid qarashlari, shu jumladan, soʻzning xosiyati va nutqning mohiyati haqidagi qimmatli fikrlari ham asarda oʻz aksini topgan.

Olim oʻz tiliga egalik qilolmaydigan kishining imoni zaifligini taʼkidlaydi: *“Agar tilingning ortiqcha soʻzlashiga ega boʻla olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan boʻlasan”*.<sup>2</sup>

Zamaxshariy tilni tiya olmaslik natijasida yuzaga keladigan holatlar, noxush vaziyatlar haqida: *“Koʻpincha til bilan yetkazilgan jarohat qiling bilan yetkazilgan jarohatdan ogʻirroqdir”*, – deydi. (58-bet) Bu mulohaza xalqimizning *“Tigʻ yarasi bitar, til yarasi bitmas”* maqolini yodga soladi.

<sup>1</sup>Бозорова И. Маҳмуд аз-Замашшарийнинг сўз қўллаш ва нутқ маданияти ҳақидаги қарашлари // Лингвист V (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент: Akademnashr, 2013. – В. 23.

<sup>2</sup>Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замашшарий. Нозик иборалар / Таржима ва шарҳлар муаллифи У.Уватов. – Тошкент: Камалак, 1992. – Б. 25. Келтирилган мисоллар шу манбадан олинди. Кейинги ўринларда саҳифалар кавс ичида берилди.

Suhbatda ortiqcha soʻzlarga zarurat yoʻqligini taʼkidlagan olim “*Koʻp ortiqcha soʻzlashuv eshituvchini ranjitar*” (70-bet) degan toʻxtamga keladi. Zamaxshariyning fikricha, dili toʻgʻri boʻlganning tili ham toʻgʻridir, haqgoʻy odamning xato-yu nuqsoni kam boʻladi.

Zamaxshariy soʻz va iboralarning maʼnosini yaxshi bilish kerakligini, chiroyli soʻzlarni bilib-bilmay ishlatish xijolatli ahvolga tushib qolishga sabab boʻlishini uqtiradi: “*Koʻp soʻz-iboralar borki, odamlarga ular fasohatli koʻrinsa-da, Alloh nazdida nomaqbulir – soʻzlovchini ham, tinglovchini ham mulzam qilur*”. (58-bet)

Umr boʻyi dunyo kezgan, har xil voqealarga guvoh boʻlgan, turli taqdirlarni koʻrgan Zamaxshariy hayotiy tajribalarga tayangan holda noʻrin aytilgan soʻz ogʻir oqibatlariga olib kelishini qayd etadi: “*Koʻp soʻzlar borki, ular seni jang-u jadalga solib, halokatga giriftor qiladi yoki ulardan qaytarsa ham yelka chuquringni gul kabi qizargan holga keltirgandan keyin qaytaradi*” (yaʼni koʻp mashaqqatlardan keyin). (58-bet)

Nasihatharazida aytilgan soʻz bebaho. Zamaxshariy nasihatning najotkorlik qudratini eʼtirof etadi: “*Nasihatharazida etuvchi soʻz taʼsiridan seni kim chalgʻitdi. Vaholanki, u nasihatchi sening azob-uqubatlardan xalos boʻlishingga sababchi edi*”. (70-bet)

Zamaxshariy soʻzni behuda isrof qilishni, soʻzbozlik bilan vaqt oʻtkazishni qoralaydi: “*Doim suhbatingda (yoningda) Qurʼoni Karim boʻlsin, biroq majlisingdagi suhbatdoshingga (oddiy) bir tengqur sifatida boʻlma*” (bir-biringga ilm-maʼrifatda foydali boʻl maʼnosida). (68-bet)

Tinglash odobi tugʻishganlar, hammaslklar haqiga rioyat qilishning shartlaridan biri ekanini “*Oʻz birodaring soʻzini sukut saqlab tinglab, uning hurmatini oʻrniga qoʻy, garchi uni eshitishga ragʻbating va mayling yoʻq boʻlsa ham*” (52-bet) shaklida ifoda etgan alloma: “*Oʻz birodaringni yanchilgan mushkdan koʻra ham xushboʻy soʻzlar bilan maqtab yod et, garchand u sendan uzoq shaharda boʻlsa ham*”, – der ekan (50-bet), soʻzda sehr va mehr borligini nazarda tutadi.

Aynan shu tarzdagi munosabat insonlar oʻrtasidagi oqibatni kuchaytirishi, adovatni yoʻqotishi, dushmani doʻstga aylantirishi mumkinligini taʼkidlaydi. Zamaxshariy yomon soʻzlar inson shaʼniga nomunosib ekanini uqtirish maqsadida: “*Ey boʻtam, tilingni yomon soʻzlardan saqla!*” – deya ogohlantiradi. (79-bet)

Insonning saxiyliqi faqat moddiy boyliklarni ehson qilishdangina iborat emas. Shunday soʻzlar borki, ular koʻngilga taskin beradi, qalblarni charogʻon qiladi. Aytilgan gap pand-nasihatharuzida boʻlar ekan, bu har



qanday sadaqadan yaxshiroqdir: *“Tilingdan chiqqan sadaqa (ya’ni pandu nasixating va mav’izayu hasanang) ba’zan qo’lingdagi (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko’ra xayr-liroqdir”*. (57-bet)

Yolg’on so’zlash, bo’hton qilish inson tabiatidagi eng yomon illatlardir. Barcha mutafakkirlarning nutq odobi va madaniyatiga oid qarashlarida bu borada juda ko’p fikrlar aytiladi, yolg’on so’zlamaslikka da’vat etiladi: *“Misvoklar (tish tozalagichlar) bilan og’zingni tozalading, koshki endi bundan keyin sen og’zingni (tilingni) bo’xton, yolg’on, g’iybat so’zlarni aytish bilan bulg’amasang”*. (62-bet)

Har bir narsada me’yor bo’lishi lozim. Garchi yaxshi va nazokatli so’zlar aytilayotgan bo’lsa ham, uzoq davom etgan so’zlashuv eshituvchiga malollik qiladi. Nutq aniq, ixcham bo’lishi, shuningdek, vaqt ham inobatga olinishi lozim: *“Ko’p ortiqcha so’zlashuv eshituvchini ranjitar”*. (70-bet)

Sharq donishmanligida til va dilning birligi insoniy fazilat sifatida ulug’lanadi. Chunki bu xususiyat insonning haqgo’y ekanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy ko’ngli va tili bir bo’lgan kishining aytgan so’zi butun (mukammal) bo’lishi haqida yozadi.<sup>1</sup> Mahmud Zamaxshariy bunday kishilar kam xato va kamchilikka yo’l qo’yishini ta’kidlaydi: *“Tiliyu dili to’g’ri va haqgo’y bo’lgan odamning xatoyu nuqsoni kam bo’lur”*. (71-bet)

Asarda *“So’z – kumush, sukut – oltin”* maqolining o’ziga xos talqinini ko’rish mumkin: *“Ko’rkam hayotning hosil bo’lib davom etishiga sabab bo’lgan narsa uzoq vaqt sukut saqlashni ixtiyor qilishdir”*. (74-bet) *“Aqlli g’ofil kishining (sukut saqlab) jim turish holati johil, parishon kishining uzridan afzaldir”*. (55-bet)

Zamaxshariy yozma nutq og’zaki nutqdan farq qilishini, bu jarayonda inson o’zini nazorat qilishga majbur ekanini ta’kidlarkan: *“Agar birovni ayblab itob qilmoqchi bo’lsang, zinhor yozma tariqada (qog’oz, xat bilan) qil, chunki birov-birovga qarshi bo’lib, ayblash kam aqllilar va telbalar ishidir, bu holda ko’ngilni siyoh qilishga sabab bo’lguvchi so’zlar hisobsiz aytilishi muqarrar, ammo xat yozganda esa emin-erkin o’ylab, fikr-mulohaza bilan yoziladi”*, – deydi. (66-bet)

“Nozik iboralar” asarida ilm, xattotlik san’ati haqida ham e’tiborga loyiq fikrlar bildirilgan: *“Kotibning yozuv xati bilan qoralash (yozish) go’zal qizning yonog’ida bo’lgan guldandir”*. (54-bet)

Zamaxshariyning fikricha: *“Ilmli bo’lish o’qish, o’qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo’ladigan bir saboqdir. Agar olim kishi chiroyli,*

<sup>1</sup> Машириқзамини – ҳикмат бустони. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.190.

*xushxat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolotga yetganidan dalolatdir".*  
(63-bet)

N.Sulaymonova e'tirof etganidek, "Az-Zamaxshariyning "Navobig'-ul-kalim" ("Nozik iboralar") asari hanuzgacha axloqshunoslik ilmining nozik maktabi sifatida e'tirof etiladi, chunki allomaning asardagi qarashlari serqirra".<sup>1</sup>

Asar kuchli tafakkur mahsulidir. Unda hayotning nozik jihatlariga e'tiborli bo'lish, jumladan, so'zning nazokati va qudratini his etish, nutq madaniyati tamoyillariga amal qilish, yozma nutqning, ilmning va xushxatlikning ahamiyati kabi masalalarda e'tiborga molik fikrlar bayon etilgan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Navobig' ul-kalim" asarida qanday masalalar yoritilgan?
2. Olim o'z tiliga egalik qilolmaydigan kishini qanday ta'riflaydi?
3. Qaysi holat xijolatli ahvolga tushib qolishga sabab bo'lishini aytadi?
4. Zamaxshariy nimaning najotkor qudratni e'tirof etadi?
5. "Navobig' -ul-kalim" asarida tinglash odobi xususida qanday fikr bildirilgan?
6. Zamaxshariy yozma nutq haqida qanday fikrlarni aytadi?

## **Barcha yo'llar Sharqqa eltadi**

Jahon tamadduniga tamal toshlarini qo'ygan azim Sharq bag'rida bunyod bo'lgan jamiki meors borki, barchasi abadiyatga daxldor. Inson kamolotiga asosiy e'tiborini qaratgan buyuk allomalar bu borada qimmatli fikrlarni yozib qoldirishgan. Jumladan, nutq madaniyati, tilni asrash, to'g'ri so'z fazilati va yolg'on so'zning eng yomon illat ekanligi haqidagi qarashlar didaktik mazmundagi asarlarning ajralmas qismidir. Notiqlik, voizlik, ya'ni va'zxonlik, so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinli foydalanish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, "Nutq adabi", "Muomala madaniyati" nomlari bilan yuritilib kelgan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortib kelgan.<sup>2</sup> Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn

<sup>1</sup> Сулаймонова Н. Махмуд аз-Замахшарийнинг адабий мероси нашрлари // Тил ва адабиёт таълими, 2005. – № 2. – Б.

<sup>2</sup> Xolmurodova T., Saminjonov B. Nutq madaniyati va uning dolzarb muammolari // Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, филология фанлари доктори,

Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugankiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga jiddiy e'tibor berishga da'vat etishgan.

Ulug' shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi badiiy yodgorligida so'zlarni to'g'ri tanlash va qo'llash haqida o'z fikrlarini yozib qoldiradi.

“Qutadg'u bilig”ning “Tilingni avayla – omondir boshing” deb nomlangan bobida quyidagi fikrlar keltiriladi: *“Uquv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi. Qut-izzatini ham, obro'-e'tiborini ham kishi til orqali oladi. Agar tilga e'tibor bermay, uni noo'rin qo'llasa, odam boshining yorilishi hech gap emas. Til misoli qafasda yotgan arslondir, bexabar boshini u bir nafasda yeydi.*<sup>1</sup>

*Tilingni avayla – omondir boshing,*

*So'zingni avayla – uzayar yoshing. (13-bet)*

Tilning inson hayotidagi ahamiyatini hech nima bilan o'lchab bo'lmaydi. Bunday bebaho ne'matdan foydalanishda beparvolik va g'ofillik qilib bo'lmaydi: *Til goho maqtalsa, goho so'kishga mos bo'ladi. Shuning uchun qachon va qancha so'zlasang ham bilib gapir. Gapirgan gaping ko'r odamlar uchun ko'z bo'lsin. (14-bet)*

Umrning o'tkinchi ekanligi, inson degan sharafli nomga munosib holda hayot kechirish zarurligi ta'kidlanadi. Jism yo'q bo'ladi, biroq so'z mangu yashaydi: *“Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Ularning biri xush qiliq, boshqasi – ezgu so'zdir. Odamdan qoladigan meros – so'z. Uning o'zi o'lib ketadi, so'zi esa mangu qoladi.”. (14-bet)*

So'zni har kimga so'zlash ham yaramaydi. Uni qadrlaydigan insonlar bilimlidir. So'zni jilovlay bilish adashishlardan asraydi: *So'zni bilimdon kishiga so'zlash kerak. Bilimsizning tilini tushunish qiyin. To'g'ri, so'zni so'zlaganda har kim ham xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Ammo bu xatoni donishmand hakimlar bartaraf etadi. So'z tuya burniga o'xshash – unga jilov solsa bo'ladi. Yoxud u tuyaning bo'yni kapidir – yetovga yuraveradi. (15-bet)*

---

профессор АБДУЛҲАМИД НУРМОҲОВ хотирасига бағишлаб ўтказилаётган Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2016. – Б. 132.

<sup>1</sup>Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (“Saodatga boshlovchi bilim”) // Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi va so'zboshi muallifi B.To'xtiyev. – Toshkent, 2014. – B.13. Keltirilgan misollar шу манбадан олинди. Кейинги ўринларда саҳифалар кавс ичида берилди.

So'zi tufayli barcha yaratiqdan aziz bo'lganligini inson unutmashligi kerak. Yusuf Xos Hojib yer yuzida hayotning paydo bo'lishini so'z bilan bog'laydi:

*Yashil ko'kdan indi bu bo'z yerga so'z,  
So'zi ila inson yorug' qildi ko'z. (15-bet)*

Kam gapirish va kerakli so'zni aytish nutq odobining birlamchi qoidalaridandir. Inson botini noyob xazina. Uning so'zlari esa bu noyob xazinaning oltinlaridir:

*So'zni so'zlamasa, u sof oltinga teng,  
U tildan chiqarilsa, sariq chaqaga teng.<sup>1</sup>*

Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asari ham o'zida nutq odobiga oid qimmatli fikrlarni jamlagan. Jumladan, shoir so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq uchun keyin xijolat chekib yurmasin deb so'zlovchini ogohlantiradi: *So'zni uqib tashla (gapir), shoshib (behuda) gapirma, so'zingni yashir. Keyin boshingni yashirib yurma.<sup>2</sup>*

Nutq odobiga oid qoida va ko'rsatmalarda sodda, o'rinli, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalikni, huda-behuda gaplarni qoralash, keksalar va ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish haqida fikr yuritiladi.

"Hibbat ul-haqoyiq"ning "Tilni saqlash haqida" deb nomlangan bobida nutq odobiga oid quyidagi qarashlar bayon qilinadi: *Ilmli kishi nimalarni so'zlaydi, sen unga quloq sol, odoblar boshi tildir, uni tiymoq zarur. Tilingni tiy, tut, tishing sinmasin, agar so'zlab yuborsang, (tiling) chiqib qolsa, tishingni sindiradi. O'ylab so'zlagan kishining so'zi to'g'ridir, o'rinsiz ko'p vaysagan til (tinglamas) ayamaydigan yovdir.*

Yugnakiy bir o'rinda to'g'ri so'zni asalga, yolg'on so'zni esa achchiq sarimsoq piyozga qiyoslaydi: *To'g'ri so'z asal kabidir, yolg'on (so'z) sarimsoq piyozdir, sarimsoq piyoz yeb, og'zingni achitmay asal yegin.*

Til jarohati tig' jarohatidan-da o'tkir ekanligi xalq og'zaki ijodi namunalarida ham ko'p uchraydi. Shoir ko'ngilni yaralashdek gunohdan qaytaradi: *Kishini o'chakishtirma, uning tilini bil, bu til yaralasa tuzalmaydi, o'q jarohati esa bitib ketadi. Ahmoq kishining tili o'ziga dushman, ko'p kishilarning qoni tili tufayli to'kiladi. Ko'p so'zlaganlar ichida o'kingan ko'pdir, tilni tiyganlar orasida o'kingan bormi,*

<sup>1</sup>Машиқзамини – ҳикмат бўстони. – Тошкент: Шарк, 1997. – Б.194.

<sup>2</sup>Аҳмад Юғнақийдан 200 ҳикмат. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – Б.18.

*qani? Kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli sodir bo'ladi, bu til sababli ayrimlar yaxshilik, ba'zilar hurmat ko'radi.*

Nutq odobi masalasi barcha davrlar uchun birdek muhim sanalgan. O'zbek tili madaniyati tarixini, notiqliği tarixini mukammal o'rganishga e'tibor ham madaniylik darajasini belgilaydi, umummadaniyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Tarixiy manbalarni o'rganish asosida shu narsa ayon bo'ladi, Sharqda azaldan notiqlik va nutq madaniyati sirlarini o'rganish shaxs kamolotining ajralmas qismi bo'lgan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Qutadg'u bilig"ning qaysi bobida nutq odobi masalalariga bag'ishlangan?
2. "Qutadg'u bilig"da so'z nimaga qiyoslanadi?
3. Yusuf Xos Hojib so'zning ilohiylik tabiatini qanday misralar bilan ifodalaydi?
4. "Hibbat ul-haqoyiq"ning qaysi bobida nutq odobiga oid qarashlarni o'z ichiga oladi?
5. "Hibbat ul-haqoyiq"da to'g'ri va egr so'z nimaga qiyoslanadi?
6. "Hibbat ul-haqoyiq"da til jarohati bayon qilingan o'rinlar qaysi?

### **"So'zni jahon bahrida durdona bil"**

Jahon madaniyati tarixida mislsiz obro'-e'tiborga ega bo'lgan o'zbek adabiy tilining yalovbarlari Alisher Navoiyning nutq madaniyati, nutq odobi haqidagi mulohazalari, fikrlari, qarashlari yuksak hayotiy tajriba mahsuli va amaliyot sinovidan o'tgan hikmatlar sifatida diqqatga sazovordir. Buyuk mutafakkir, avvalo, so'zning qudratini quyidagicha tavsiflaganlar:

*So'z durki, nishon berur o'lukka jondin,  
So'z durdi, berur jong'a xabar jonondin.  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.*

(“Nazm ul-javohir”)

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida ta'kidlanishicha, so'z go'yo durdir. Durning joylashish o'rni dengiz tubi bo'lsa, so'zning o'rni ko'ngil (xotira)dir. Dengiz qo'nda harakatsiz imkoniyat

tarzidagi soʻzlar ham soʻzlovchi tomonidan nutqiy jarayonda oʻz jilvasini topadi.

Nutq madaniyati tinglovchiga, hamsuhbatga fikrni sof adabiy tilda toʻgʻri, aniq, silliq, tushunarli, taʼsirli, yoqimli bayon etish va ona tilining vosita hamda imkoniyatlaridan nutq mazmuniga, soʻzlash sharoiti, aytilmoqchi boʻlgan maqsadga muvofiq ravishda foydalana olishdir. Har bir soʻzni oʻrinli qoʻllash nutq madaniyati sanaladi. Shu bois hazrat Alisher Navoiy tilni, soʻzni qadrlashga va hurmat qilishga chaqiradi. Soʻzni qoʻllash, nutq madaniyati haqida yuksak hayotiy tajriba mahsuli sifatida tugʻilgan donishona hikmatlar qoldirdi:

*Donau dur soʻzini afsona bil,  
Soʻzni jahon bahrida durdona bil.*

(“Hayrat ul-abror”)

Haqiqatan ham, nutq, yaʼni soʻzlash jarayonida soʻzni qadrlash lozim. Soʻzni qadrlagan odamgina har bir soʻzdan unumli foydalana oladi.

Shoir: “Soʻz – til faqat inson uchun ato etilgan. Insonning insonligi til bilandir. Hayvon soʻzlash imkoniyatidan mahrum boʻlganligi uchun ham hayvondir”, – degan xulosaga keladi:

*Ul kim chu jahon xilitin ogʻoz etti,  
Sunʼi qilishni naqsh bardozi etti,  
Inson haylin nut ila mumtozi etti,  
Nutq ahlini nazm ila sarafrozi etti.*

Shu bois ham soʻz muqaddas va mukarramdir. Alisher Navoiy: “Koʻngil badan mulking podshohidir”, – deb yozadi. Huddi ana shu podshoh sanalmish koʻngildagi fikrlar tilda yuzaga chiqadi. Shunday ekan, Alisher Navoiy inson soʻzlaganda uning koʻngli, dili bilan tili bir boʻlishi lozimligini alohida taʼkidlaydi:

*Demon, koʻngli poku ham koʻzi pok,  
Tili poku soʻzi poku oʻzi pok.*

(“Farhod va Shirin”)

Yoki: *Tili fasih va dilpazir boʻlgʻay – xubroq boʻlgay, agar koʻngil bila bir boʻlgay.* (“Mahbub ul-qulub”)

Navoiy fikricha, har qanday vaqtda inson oʻylab, soʻzining maʼnosini tushunib gapirmogʻi lozim:

*Soʻzni koʻngulda pishqarmaguncha tilga kelturma,  
Harnakim, koʻngilda boʻlsa til surma.*

(“Mahbub ul-qulub”)

Uningcha, chin so`z – mo`tabar, yaxshi so`z – muxtasar.

Demak, inson so`zlaganda shirinso`z bo`lmog`i, rost va chin so`zni aytmog`i shart: *Husn-jamoli yo`q odam shirinso`z bo`lsa, go`zal va shirin so`zi bilan barchani qo`lga oladi.* (“Mahbub ul-qulub”)

Bundan shunday xulosa chiqadiki, yaxshi so`zlay olish, shirinso`zlik insonga husn bag`ishlaydi, uning obro`-e`tiborini orttiradi.

Shuningdek, mazmunli, risoladagidek nutq irod qilish ham bir san`at, hunarlarning noyobidir:

*Erdirin so`z hunar, enchidin bo`z hunar.*

(“Mahbub ul-qulub”)

Xalqimiz: “Bir yigitga yetmish hunar kam”, – deydi. Demak, o`zini barkamol sanagan har bir odam nutq madaniyatini, nutq san`atini egallamog`i lozim. Chunki yaxshi, ezgu so`z (nutq) ayta olish, nutq odobini egallash kishiga baxt keltiradi:

*Kim istasa mazhari karomat bo`lmoq,*

*Har nav` ishda istiqomat bo`lmoq.*

*So`zdir ancha mujibi g`aromat bo`lmoq,*

*Til zabtidadur ancha salomat bo`lmoq.*

Mutafakkir nutq odobining talablari haqida yana ko`plab fikrlarni aytgan. Ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so`zi, nutqidir: *Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig`i so`z bila.*

(“Mahbub ul-qulub”)

*So`z zohir zamir ishi ko`pragidin,*

*Til muxbir erur ko`ngil nihon emgagidin,*

*Fahm ayla kishi holini so`z demagidin,*

*Kim berdi xabar hadisi ko`nglidagidin.*

(“Nazm ul-javohir”)

2. Kishining so`zi (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

*Odamki, demak birla kiromidiru bas,*

*So`z durri ishining intizomiduru bas,*

*Sihhat onchaki, ahli aql komidiru bas,*

*Aqlig`a dalil aning kalomiduru bas.*

(“Nazm ul-javohir”)

3. So`zlaganda diling bilan tiling bir bo`lsin, chunki dildagi tilga chiqadi:

*Haq seni sevgay el bila bo`lsang,  
Tilu ko`nglingni bir qilib birro`y,  
Nuqta sursang shukuftau xandon,  
Zist qilsang, kushodou xushro`y.*

(“Arbain”)

4. Xushmuomala, shirinso`z bo`l. Tiling bilan kishilarga ozor berma:

*Har kimki chuchuk so`z elga izhor aylar,  
Har neki ag`yor durur yor aylar,  
So`z qattig`i el ko`ngliga ozor aylar,  
Yumshog`i ko`ngillarni giriftor aylar.*

(“Nazm ul-javohir”)

5. Chin, to`g`ri so`zla, nutqingda halol bo`l. Yolg`on so`z baxtsizlik keltiradi: ...So`zki fasohat zeveridin muayyan emasdur, anga chinlik zeveri basdur. Yolg`onchi har necha so`zida fasihroq, so`zi qabih.

(“Mahbub ul-qulub”)

6. Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuhmatchidan qoch. Undan nafratlan: Birovkim yolg`on so`zni birovga bog`lagay, o`z qaro bo`lg`og` yuzni yog`lag`ay. Kabira gunohdur – oz so`z hamki o`trukdur, zahra gunohdur – oz so`z hamki o`trukdur, zahri muhlikdur – agarchi miqdori o`ksukdur.

(“Mahbub ul-qulub”)

*El aybini ayturg`a birovkim, uzotur til,  
O`z aybini fosh aylagali til uzotur, bil.*

(“Mahbub ul-qulub”)

7. Tilingni tiy. Ko`p so`z, ezma va vaysaqi bo`lma. Bu zararlidir.

*Befoyda so`zni ko`p aytma va foydalig` so`zni ko`p eshiturdin qaytma. Oz degan oz yanchilur, oz yegan oz yiqilur.*

(“Mahbub ul-qulub”)



*Til ildamidin bo`lur g`aromat hosil,  
Yuz nav` nadomatu malomat hosil.  
Oz so`zlagandin istiqomat hosil,  
Soqitligidin vale salomat hosil.*

(“Nazm ul-javohir”)

8. So`zlaganda sharoitni, suhbatdoshingni hisobga ol, beo`rin so`z aytma: *Zolim va bedard suhbatida nukta surma, nammom va nomard muloyamatida dam urma. Dono ilikdin borg`ondin so`z aytmas, o`tgan yigitlik orzu bila qaytmas.*

(“Mahbub ul-qulub”)

9. Bo`shog`iz bo`lma, suhbat sirlarini saqlashga o`rgan:

*Qaysi majlisdakim eshitsang so`z,  
Bilgil ul so`z sanga amonatdur.  
Gar ani o`zga yerda naql etsang,  
Ul amonatga bu xiyonatdur.*

(“Arbain”)

10. Gapirganda qaytariqlardan qoch, chunki ular fikrning ta`sirini susaytiradi:

*Bir deganni ikki demak xush emas,  
So`z chu takror topti dilkash emas.*

(Sab`ai sayyor”)

Umuman, kishilarning to`g`ri, ta`sirchan, chiroyli va mazmunli gapirishga intilishi va unga oid odatiy qoidalar qadimiy tarixga ega. Bu qoidalar hozirgi kunga qadar davom etib, takomillashib, sayqallnib kelmoqda.

Ona tilimizga e`tibor ortib borayotgan bugungi kunda nutq madaniyati qoidalarini o`rganish, hazrat Navoiyning bu boradagi ibratli o`gitlaridan xulosa chiqarib, nutq odobi qirralari egallash har bir insonning asosiy burchidir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Alisher Navoiyning qaysi asarlarida nutq madaniyati masalalariga e`tibor qaratilgan?
2. Buyuk mutafakkir so`z(nutq)ning qudratini qanday tavsiflagan?

3. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida soʻz qanday taʼriflangan?

4. Alisher Navoiy koʻngilga qanday taʼrif beradi?

5. Alisher Navoiy nutq odobi talablari haqida qanday fikrlar bildirilgan?

## **Husayn Voiz Koshifiy nutq odobi xususida**

Qadimda Xuroson, Movarounnahr shaharlarida X asrdan boshlab keng yoyilgan, oddiy xalq ichidan yetishib chiqqan hunarmandlar, sipohiylar, pahlavonlar, qiziqchilar va boshqa toifa kishilaridan iborat javonmardlik yoki futuvvatchilik harakati namoyandalari, yaʼni futuvvatchilar barcha sohada muayyan qoidalarga rioya qilganlar, maʼnaviy va jismoniy yetuklikka intilganlar.

Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati” risolasida ana shu futuvvat ilmining qoida-nizomlari yoritilgan. Futuvvat ilmining qoida-nizomlarida nutq odobi, yaʼni soʻzlashish madaniyati ham alohida oʻrin tutgan.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining toʻrtinchi majlisida Husayn Voiz Koshifiyga: “Oz fan boʻlgʻaykim, dahli boʻlma-gʻay. Xususan, vaʼz, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida muttaayyin va mashhur ishlari bor...”, – deb yuksak baho beradi.

Yoshligidanoq voizlik – soʻz sanʼati bilan shugʻullangan. Koshifiy Sabzavorda tez orada koʻzga koʻringan voiz – notiq boʻlib tanilgan. Keyinchalik Nishopurda, 1455-1468-yillarda esa Mashhadda yashab, voizlik qilgan.

Husayn Voiz Koshifiy nutqda soʻzning oʻrni, uni tanlashda voizning didi, nazokati, tinglovchining umumiy saviyasini hisobga olish zaruriyati, rost nutqning xosiyati, voizning surati va siyrati kabi masalalarga alohida eʼtibor berish lozimligini taʼkidlagan. Juda isteʼdodli va qamrovli bilimi bilan shoh Husayn Boyqaroning eʼtibori, Alisher Navoiyning eʼtirofiga sazovor boʻlib, davlat voizi sifatida nom qozongan Koshifiy vaʼz, uni tayyorlash va aytishda zarur boʻladigan sifatlarning hech birini, kattasini ham, kichigini ham nazardan soqit qilmagan.

Koshifiyning ilmu zakovat, notiqlik bobida yuksak mahorat va eʼtiborga ega boʻlganligi haqida koʻplab dalillar keltirish mumkin. 1492 yilning 8 noyabrida Abdurahmon Jomiyning dafn etish marosimida vaʼz aytish, Alisher Navoiyning Jomiyga bagʻ ishlangan 7 band, 140 misradan

iborat “Xamsat ul-mutaxayyirin” nomli marsiyasini va tarkibband tarixi-ni o`qib berish ham Mavlono Koshifiyga topshirilgan.

“Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati” risolasining “Tariqat ahlining odobi haqida” nomli 5-bobining oltinchi fasli “Suhbat odobi haqida”.

Husayn Voiz Koshifiy odamning sharafi nutq bilan, nutq odobiga rioya qilmagan kishi bundan bebahra ekanligini ta`kidlaydi: *“Bilgilki, odamzodning sharafi nutq bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdin bebahradir”*.

Allomaning uqtirishicha, so`zlash odobining talabi quyidagicha: *“So`z hamma vaqt savob uchun ishlatilish, to`g`ri va haqqoniy bo`lishi kerak. Agar shunday bo`lmasa, jim turgan ma`qul”*.

Koshifiy suhbat odobi borasida fikr yuritar ekan, shayxlar va boshqa martabaga erishganlar, hali martabaga erishmaganlar, muridlar, demak, barcha rioya qilishi lozim bo`lgan bir qancha qoidalari mavjudligini ko`rsatadi.

Alloma martabaga yetganlar uchun suhbat odobi quyidagi sakkiz qoidadan iboratligini qayd etadi:

*“... birinchidan, har kimning ahvoliga qarab, munosib so`z aytsin. Ikkinchidan, dag`allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. To`rtinchidan, ovozini baland ko`tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga naf`i tegadigan ma`noli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so`zning qimmat-i-qadri bo`lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug`larning so`zi bamisoli urug`dir, agar urug` puch yoki chirigan bo`lsa, uni qaerga ekmang unib chiqmaydi.”*

Koshifiy martabaga yetmaganlarning suhbat odobi yuzasida ham fikr yuritib, quyidagi sakkiz qoidani qayd etadi: *“Birinchidan, so`ramagunlaricha gapirmasin. Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko`tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o`ngu so`liga qaramasin. To`rtinchidan, g`arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin. Beshinchidan, qattiq gapirmasin va betga choparlik qilmasin. Oltinchidan, pushaymon bo`lmaslik uchun o`ylab gapirsin. Yettinchidan, odamlar gapini bo`lib so`z qotmasin. Sakkizinchidan, ko`p gapirmasin. Chunki ko`p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo`lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin.”*

Koshifiyning suhbat odobi borasidagi pandu o`gitlaridan quyidagi-ibratli xulosalarni uqamiz:

- soʻzlayotganda tinglovchining ruhiy, ijtimoiy holatini, yoshini, bilim saviyasini va boshqa jihatlarni eʼtiborga olish shart;
- tinglovchiga hurmat, diqqat-eʼtibor bilan boshqa masalalarga chalgʻi-masdan soʻzlamogʻ kerak;
- baqirmasdan, yoqimli ovozda soʻzlash lozim;
- lutfu ehtirom, muloyimlik, ochiq chehra bilan gapirmogʻ zarur;
- oʻylab, mulohaza bilan, odamlarning dilini ogʻritadigan fikrlarni aytmaslik kerak;
- nutqni choʻzmaslik, oz boʻlsa ham soz gapirish, yaʼni maʼnoli va mazmunli gapirmogʻ lozim.

Alloma voiz subhatlashish jarayonida kishilarga “sidqu sadoqat” bilan soʻzlashi va ularni “qabul qulogʻi” bilan tinglashi lozimligini uqtiradi: *“Agar qaysi til bilan soʻzlaysan, deb soʻrasalar, sidqu sadoqat tili bilan, deb aytgil. Agar soʻzni qaysi quloq bilan eshitasan, deb soʻrasalar, qabul qulogʻi bilan, deb aytgil”*.

Husayn Voiz Koshifiy soʻzning, xususan, nutqning inson hayotidagi oʻrnini hayotiy va falsafiy tashbehlar, qiyoslar bilan uqtiradi: *“Agar soʻz senikimi yoki sen soʻznikimi, deb soʻrasalar, aytgil: men soʻzniki va soʻz menikidir, chunki soʻz insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevan, mevani esa daraxtdan ajratib boʻlmaydi.”*

Alloma nutq odobiga doir oʻgitlarini yaxshi va yomon soʻz talqinlari bilan tugatadi: *“Agar yaxshi soʻz qaysi, deb soʻrasalar, kishilarga nafʼi tegadigan soʻz, deb aytgil. Yomon soʻz qaysi, deb soʻrasalar, birovga zarari tegadigan soʻz, deb javob bergil.”*

Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” risolasining “Maʼraka tuzuvchi soʻz ahli haqida” deb nomlangan fasli 3-qismida qissaxon va afsona aytuvchilar haqida soʻz boradi.<sup>1</sup> Mutafakkir qissa oʻqish va qissa eshitishning foydalari haqida aytadi: *“Birinchidan, kishi oʻtgan ajdodlarining ishi va ahvolidan xabardor boʻladi. Ikkinchidan, odam gʻaroyib va ajoyib voqea, sarguzashtlarni eshitsa, fikri va koʻzi ochiladi. Uchinchidan, oʻtganlarning zahmatu uqubatlaridan xabardor boʻlsa, hech kim bu dunyoda tashvish-gʻamdan ozod emasligini anglab, koʻngli taskin topadi, tasalli boʻladi. Toʻrtinchidan, oʻtgan podsholar davlati va mulkining zavolini eshitsa, dunyo moliga mehri susayadi, boylik kishiga vafo qilmasligini bilib oladi. Beshinchidan, qissa eshitgan behad koʻp ibrat oladi, tajriba orttiradi”*.

<sup>1</sup> Қаранг. Расулов Р ва бошқалар. Нутқ маҳорати (ўқув қўлланма). – Тошкент, 2006. – Б.141.

Husayn Voiz Koshifiy qissaxonlikni hikoyat aytish va she'r-xonlikka bo'lib, hikoyat aytishning sakkiz qoidasini keltiradi:

– qissaxon ustoz ta'limini olgan, uning sinovidan o'tgan bo'lishi kerak;

– chapdastlik bilan dadil so'zga kirishsin, xomlik va lanjlik ko'rsatmasin;

– davra qanday asarni qabul qilishini anglasin va kerakli asarni tanlab, me'yorga rioya qilsin;

– hikoya davomida eshituvchilarga malol keltirmagan holda nasrni nazm bilan qo'shib borsin;

– elning nazaridan qolmaslik uchun yolg'on va ishonarsiz so'zlarni gapirmasin;

– kinoyali so'zlarni aytmasin, chunki bu eshituvchilarni ranjitadi;

– odamlardan hech nima tama qilmasin;

– qissaxonlik tez tugamasligi, lekin haddan ortiq cho'zilmasligi ham kerak.

She'r-xonlikning ham bir qancha qoidalari bor: *“Birinchidan, she'rni ohang bilan o'qisin, ikkinchidan, she'rni odamlar qalbiga joylay olsin. Uchinchidan, agar biror mushkil (tushunilishi og'ir) bayt paydo bo'lsa, yig'ilganlarga uni sharhlab, mazmunini izohlab bersin. To'rtinchidan, eshituvchiga malol keladigan ish qilmasin. Beshinchidan, gadoylik qilmasin, mubolag'ali qasamlar ichmasin. Oltinchidan, o'qigan she'rning muallifini ma'raka oxiri yoki boshida tilga olib, duo qilsin”*.

Mutafakkir asarlarida o'zining hayotdan olgan soboqlari, tajribalari asosida xalqchilik, insonparvarlik, ijtimoiy hayot, adolat, halollik, sofdillik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik haqidagi fikrlarini qiziqarli hikoyatlar, rivoyatlar yordamida bayon etadi. Koshifiyning o'z tili bilan aytganda “hikmati amaliy” asosida yozilgan bu asarlar bugungi kunda ham juda katta ma'naviy va ma'rifiy ahamiyatga ega. Albatta, bunday xususiyat va mohiyat uning nutq haqidagi qarashlariga ham xos.

Allomaning nutq odobi borasidagi alohida-alohida ta'kid bilan yuqoridagi uqtirishlari xalq maqollariga monand chuqur mazmun-mohiyatga ega bo'lib, hozirda ham o'z ma'naviy ahamiyatini yo'qotmagan. Ta'kidlash joizki, bu pandu o'gitlar komillikka intilayotgan yoshlarimiz uchun dastur bo'la oladi.

Qisqasi, Alisher Navoiy ma'naviy davrasida, u bilan hamfikir hammaslak bo'lgan Husayn Voiz Koshifiy o'zining qomusiy ilmiy merosi va noyob, yuksak, betakror voizlik mahorati bilannafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharq dunyosi ilm-fanining ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan,

o'ziga xos ibrat maktabini yaratgan. Ana shu maktabdan komillik sabog'ini olish va qolaversa, yoshlarimizda komillik xislatlarini tarbiyalashda bu maktabning ilmiy mersoidan foydalanish muhim vazifalardan biridir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" risolasi nimaga bag'ishlangan?
2. Husayn Voiz Koshifiy qanday masalalarga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlagan?
3. "Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" risolasining qaysi bobini suhbat odobiga bag'ishlangan?
4. Martabaga yetganlar uchun suhbat odobining qanday qoidalari qayd etiladi?
5. Martabaga yetmaganlarning suhbat odobi haqida qanday fikrlar bildiriladi?
6. Husayn Voiz Koshifiy nutq odobiga doir o'gitlarini qaysi talqin bilan tugatadi?

### **Tursunoy Sodiqovanning notiqlik san'ati va notiq haqidagi qarashlari**

Jamoa oldida nutq so'zlash, notiqlik san'ati; ilmiy-siyosiy ma'ruza, bahs, munozara, targ'ibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega bo'lgan san'at voizlik san'atidir.<sup>1</sup> Demak, voizlik hozirgi notiqlik san'ati rivojida muhim rol o'ynagan.

Notiqlik san'atini egallash, o'rganish va uqishda mashhur notiqning o'gitlarini, ilmiy-nazariy qarashlarini, amaliy faoliyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Biz mazkur maqolada shu borada fikr yuritmoqchimiz.

Zamonamizning yetuk notiqlaridan biri Tursunoy Sodiqova notiqlik san'ati, nutq odobi, nutqning qudrati, notiqning ma'naviyati va vazifalari xususida ham qimmatli fikrlar bildirgan.

Tursunoy Sodiqova fikricha nutq so'zlash jarayonida quyidagilarga amal qilish lozim:

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2001. – 2-ж. – Б. 489.

1. Notiq shaxsi va ma'naviyati yuksak bo'lishi lozim: *"Kibrli odamni xalq qabul qilmaydi: minbarga chiqayotganingizda ko'nglingizda "hozir falonchidan o'tqizib gap aytaman yoki hammani qoyil qoldirib yuboraman", degan o'y mulloqo bo'lmasin!"*<sup>1</sup>(13-bet)

Yoki olimaning talqinicha, notiqning qalbi ham, niyati ham, fikrlari ham sof, toza, ezgu bo'lmog'i kerak: *"Yuragingizni yuving, yuragingizni poklang, so'nggina so'z aytishni ixtiyor eting!"*(53-b.)

2. Notiq o'z fikrini tushuntirib, singdirib aytishi lozim. Notiq qarashicha, nutq mazmunli, shirali, ta'sirchan bo'lmog'i kerak: *"Siz avval o'zingizni emas, so'zingizni kiyintiring: odamlarning qulog'ini og'ritmasin, kayfiyatlariga botmasin! Maqsadga so'z bilan yetishni orzu qildingizmi, shunday aytingki, so'zingizni havoday shimirsinar, gul hidlaganday vujudlari yayrab ketsin"*.

3. Tinglovchiga aytilishi lozim bo'lgan fikr aniq, avvaldan tayyorlangan bo'lishi kerak: *"Avvalo tinglovchiga yetkazadigan nutqiy masallig'ing tayin bo'lsin..."*(52-b.) Shuningdek, notiqning talaffuzi aniq va tushunarli, ovozi yoqimli bo'lishi, nutqning mazmun-mohiyati uning tashqi ko'rinishida, ovoz tonida sezilib turishi kerak: *"So'zni chaynamang, ming'irlamang, har bir harfni o'z ohangi, rangi bilan tiniq talaffuz qiling! Ovozingiz xunuk bo'lsa minbarga chiqmang! Quvonchli so'zni quvnaib ayting! Xafa so'zni hasrat bilan ayting! "Urg'u" degan oltin tayyoqcha bor, kerak so'zni topib tegizsangiz, jumla jaranglab ketadi! Bu degani gapingiz albatta tinglovchining yuragiga yetadi!"*(54-b.)

4. T.Sodiqova ta'kidlariga ko'ra, notiq hayotiy so'zlamog'i, tinglovchilarni o'ziga va so'ziga ishontirmog'i, nutq kuchi bilan tinglovchida ezgulikka ishonch ruhini uyg'otmog'i hamda shu asnoda uni o'zini-o'zi taftish qilish darjasiga erishmog'i kerak: *"Yaxshi voizni eshitarkan, inson shayton mindirgan gina, qasos, adovat, kibr egaridan tushadi. Bunday inson ipakday halimlashadi" "... tinglovchining o'ziga o'zini tanittiradi"*. (32-bet)

Yoki: *"... tinglovchining so'zindan uni g'oyat hurmat qilayotganingni bilsin. Mehr bilan undagi afzalliklarga ishora qil, uning yuz foiz sog'lom ekanligiga, bu kichkina dard unga vaqtincha qo'nib turganiga, undan mulloqo qutulib ketish yo'llari son-mingta ekanligiga ishontir. Ishontirish asnosida doringni ham badaniga asta-asta yedirib boraver!"* (48-bet)

---

<sup>1</sup>Барча парчалар куйидаги манбадан олинди: **Содиқова Т.** Сўз сехри. – Тошкент: DAVR PRESS, 2009. – 56 б.

Boshqa bir o'rinda: *"Voiz tinglovchining xatolarini taftish etadi. U shunday qiladiki, tinglovchi o'z-o'zini so'roqqa tuta boshlaydi. O'z yuragini titkilab, yig'lab yotgan oriyati va andishasini topib oladi, badanida uyat degan og'riq uyg'onadi. Mana shu vaziyat voizning chin g'alabasidir!"* (51-bet)

5. Olima fikricha, notiq minbarni muqaddas bilishi, uni qadrlashi shart, chunki minbar da'vat nuqtasi bo'lib, tinglovchilarni komillikka boshlash nuqtasidir: *"Minbarni biz muqaddas dedik. Chunki u da'vat nuqtasi, da'vat esa xalqni komillik sari yetaklashdir"*. (12-bet)

6. Notiq hamma narsani, xususan, ona tilisini sevishi farz: *"Siz sizga Xudo berib qo'ygan hamma ne'matni: yeringizni, elingizni, tilingizni seving, buyuk ne'mat deb biling ekan!"* (53-bet)

7. Tursunoy Sodiqova o'qituvchilik kasbi o'ziga xos mohiyatiga ko'ra notiqlik ekanligini ta'kidlaydi: *"O'qituvchilik kasbi ham umr bo'yi o'rtada turib nutq irod qilish demakdir."*(17-bet) Shu bois bo'lajak o'qituvchi notiqlik san'ati sirlarini egallashi bosh vazifa ekanligini uqtiradi: *"Keyin notiqlik sirlarini chuqur o'rganishlari, undan keyingina tanlagan fanlarini o'rganishga o'tishlari kerak"*.(18-bet)

Tahlillardan ko'rinadiki, notiqlik san'ati yuksak, nozik, murakkab san'at bo'lib, notiq mukammal va chuqur bilimga, iqtidorga, shirali va yoqimli ovozga ega bo'lishi lozim hamda shu yo'nalishda doimo izlanmog'i muhimdir. Shundagina uning nutqi ta'sirchan, mazmunli, yoqimli, tarovatli bo'ladi.

Umri, asosiy vaqti o'quv xonasi minbari oldida o'tadigan o'qituvchi ham o'z kasbi-kori mohiyatiga ko'ra notiqlik san'atini va notiqqa xos xislatu fazilatlarini mukammal egallamog'i davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Voizlik san'ati qanday san'at?
2. Nutq so'zlash jarayonida qanday qoidalarga amal qilish lozim?
3. Tinglovchiga aytilishi lozim bo'lgan fikrga qanday talablar qo'yiladi?
4. Qaysi jihat tinglovchilarni komillikka boshlash nuqtasi hisoblanadi?
5. T.Sodiqovanning notiq va notiqlik haqidagi talqinlari qanday?



## Til – dil kaliti

Mamlakatimizning taniqli suxandon-notiqlaridan biri, murabbiy va olim Rahimboy Jumaniyozovning “Dil – qulf, til – kalit” (Toshkent: O‘zbekiston, 2015. 93-bet) risolasida notiqlik va nutq madaniyati borasidagi qimmatli fikrlar bayon etilgan. Muallif bu boradagi uzoq yillik tajribalarini keng kitobxon ommasi bilan o‘rtoqlashadi.

Tildan o‘rinli foydalanish va nutq masalalari barcha davrlarda ziyolilar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Har bir inson fikrini nutq yordamida ifodalaydi, boshqalar bilan suhbatga kirishadi. Notiq insonnigina nutqi, gapi, aytayotgan so‘zi ta’sirli, mantiqli, qalbga yetib boradigan darajada asosli bo‘lib chiqadi.

Notiq inson barcha davrlarda qadrlangan. Shunga ko‘ra uning o‘z uslubi mavjud bo‘ladi. Mustaqil uslubga ega bo‘lmagan notiq odamlarni o‘z fikriga ishontirolmaydi. Rahimboy Jumaniyozovning notiq va notiqlik haqidagi quyidagi qarashlari diqqatga molikdir: *“Haqiqiy notiq butun bir qo‘shinni boshqarayotgan qo‘mondonga o‘xshaydi. Uning o‘z strategiyasi va taktikasi bor. Strategiya – oldingga qo‘yilgan maqsad, taktika esa – uni amalga oshirish yo‘llari, usullaridir. Taktikani bilma-gan va o‘z o‘rnida qo‘llay olmagan notiq albatta mag‘lubiyatga uch-raydi”*.<sup>1</sup>

Haqiqiy notiqqa turli talablar qo‘yiladi. Jumaladan, kerak o‘rinda sukut saqlashi, g‘azabini jilovlay bilishi, ta’sirli so‘zlardan va me‘yordan oshmagan tasviriy vositalardan foydalana olishi kerak. Shu bilan bir qatorda quyidagi eng asosiy talablar ham mavjud. Buni olim quyidagicha ta’kidlaydi: *“Haqiqiy notiq quyidagi mezonlarga tayanadi – kimga, nima haqda, qayerda gapirishni, qachon va qanday gapirishni, qay holatda, eng muhimi, qancha so‘zni bilishi shart”*. (27-bet)

Har bir soha muayyan mantiqiy ildizga ega bo‘lsagina yashaydi, taraqqiy etadi. Notiqlik ham bundan mustasno emas. Muallif tomonidan nutq madaniyati va notiqlik san’ati daraxtga qiyoslanadi va mantiq uning ildizi ekanligi uqtiriladi: *“Notiqlik ulkan daraxt bo‘lsa, notiqlar – uning shox-u novdalari, nutq – mevalari, mantiq esa – teran tomiridir”*. (27-bet)

Boshqa bir o‘rinda esa olim tomonidan notiqlik tanaga, mantiq suyakka, nutq etga o‘xshatiladi. Faqat etdan yoki faqat suyakdan iborat tana bo‘lmaganidek notiqlik va mantiq ham bir-biridan ayro bo‘lol-masligi ta’kidlanadi.

---

<sup>1</sup> Жуманиёзов Р. Дил – кулф, тил – калит. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 26. Keltirilgan misollar shu manbadan olingan. Boshqa o‘rinlarda sahifa qavs ichida beriladi.

O'tmish allomalaridan to bugungi kun ilm ahligacha sukut donishmandlikning eng asosiy belgilaridan biri ekanligi e'tirof etiladi. Ilm shunday xilqatki, uning mashaqqatli yo'lini har kim ham bosib o'tolmaydi. U insondan cheksiz sabr va matonat talab qiladi. Rahimboy Jumaniyozov fikricha, notiqlik ilm sifatida keng amaliy tajribani ham talab qiladi: *"Ilmning avvali – sukut, so'ng eshitish, so'ng yod olish, so'ng amal qilish, so'ng uni tarqatishdir. Notiqlikning avvali – sukut, so'ng tinglash, yod olish, aql chig'irig'idan o'tkazish, amal qilish va some'ga bayon etishdir"*. (28-bet)

Harakat va izlanish hayotning davomiyligi va tiriklikdan nishona-dir. Suv ham oqmasa, u asta-sekin o'zidan turli noxush hidlar chiqara boshlaydi. Oqibatda esa qurishga mahkum. Har qanday bilim doimiy takrorlab turilmasa, xotiradan chiqadi. Bilimning mavjudlik sharti ham takrordadir. Rahimboy Jumaniyozov ko'rsatishicha, ayniqsa, nutqiy amaliyotda takrorlashning o'rni nihoyatda ahamiyatlidir: *"Notiqlik tinimsiz izlanish, intilish va kundalik mashg'ulot bo'lishi kerak. Suvdagi holatingizni tasavvur qiling. Qimirlab turmasangiz cho'ka boshlaysiz. Notiqlik ham doimiy mashqni talab etuvchi san'atdir"*. (88-bet)

So'zning inson hayotida tutgan o'rnini hech qanday o'lchov bilan baholab bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalarida so'zga bildirilgan munosabatlarni istagancha topish mumkin. Mehrli so'z inson umrini uzaytiradi. Qahrli so'z egasi esa omma qahriga uchraydi. Shunga binoan so'zga ko'plab ta'riflarni keltirish mumkin. Olim so'zni quyidagicha ta'rif-u tavsif etadi: *"So'z – ne'mat, so'z – rag'bat, so'z – da'vat, so'z – hikmat, so'z – himmat... Faqat uni qachon, qayerda, qanday qilib, qancha qo'llash so'zlovchiga bog'liq"*. (65-bet)

Risolani o'qir ekansiz, notiqlik san'atining mohiyati, so'zdan umumli foydalanish borasidagi qarashlar sizga hayotiy saboq beradi, yana o'qib o'rganishga chorlaydi.

### **Nazorat uchun savollari**

1. Rahimboy Jumaniyozov notiq va notiqlik san'atiga qanday tashbehlar beradi?

2. Olimning nutq mukammalligi xususidagi qarashlari qanday?

3. Nutqning falsafiy asosi nima? Dalillar bilan izohlang.

4. Notiqqa qanday talablar qo'yiladi?

5. So'zga berilgan ta'riflarning mazmun-mohiyatini izohlang.

## Adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg' u bilig ("Saodatga boshlovchi bilim") // Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi va so'zboshi muallifi B.To'xliyev. – Toshkent, 2014.
2. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
3. Абу-л-Қосим Махмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар / Таржима ва шарҳлар муаллифи У.Уватов. – Тошкент: Камалак, 1992.
4. Арасту. Поэтика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
5. Арасту. Ахлоқи кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
6. Аҳмад Югнакийдан 200 ҳикмат. – Тошкент: Мухаррир, 2011.
7. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
8. Жуманиёзов Р. Дил – кулф, калит – тил. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
9. Кайковус. Қобуснома. Форсчадан Муҳаммад Ризо Огаҳий таржимаси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: О'қитувчи, 2015.
10. Машриқзамин – ҳикмат бўстони. – Тошкент: Шарқ, 1997.
11. Ортиқов А., Ортиқов А. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Тошкент, 2002.
12. Расулов Р ва бошқалар. Нутқ маҳорати (ўқув қўлланма). – Тошкент, 2006.
13. Саитов Ё. Оталар сўзи – ақлнинг кўзи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
14. Содиқова Т. Сўз сеҳри. – Тошкент: DAVR PRESS, 2009.
15. Тафаккур гулшани. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
16. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.

## Mundarija

|  |           |
|--|-----------|
| <b>So`zboshi.....</b>  | <b>3</b>  |
| <b>Notiqlik nazariyasining asoschisi.....</b>                                    | <b>5</b>  |
| <b>“So`z – bir, sayqal – qirq”.....</b>  | <b>9</b>  |
| <b>Ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga da`vat.....</b>                          | <b>14</b> |
| <b>So`zda sehr va hikmat bor.....</b>  | <b>18</b> |
| <b>So`z – borliq.....</b>  | <b>23</b> |
| <b>Kaykovusning nutq odobi haqidagi qarashlari xususida.....</b>                 | <b>26</b> |
| <b>Mahmud az-Zamaxshariyning nutq madaniyati haqidagi qarashlari.....</b>        | <b>30</b> |
| <b>Barcha yo`llar Sharqqa eltadi.....</b>  | <b>33</b> |
| <b>“So`zni jahon bahrida durdona bil”.....</b>                                   | <b>36</b> |
| <b>Husayn Voiz Koshifiy nutq odobi xususida.....</b>                             | <b>41</b> |
| <b>Tursunoy Sodiqovanning notiqlik san`ati va notiq haqidagi qarashlari.....</b> | <b>45</b> |

**KBK 80.04 (5 O'zb)**

**U 48**

**UO'K: 80.22.14**

**ISBN 978-9943-381-81-0**

***Uluqov N., Abduhamidova L. Nutq madaniyati talqin va tahlillari***  
**// o'quv-uslubiy qo'llanma // T.: «NAVRO'Z» nashriyoti 2017. – 52 b.**

**“NAVRO'Z” nashriyoti**  
**Nashriyot litsenziyasi № AI 170. 23.12.2009 y.**  
**100000, Toshkent sh. A.Temur 19.**

Adadi 100 nusxa. Hajmi 3,25 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>  
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.  
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.  
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.

ISBN 978-9943-381-81-0



9 789943 381810